



YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTI UCHUN XORIILIK INVESTORLAR BILAN SAMARALI HAMKORLIK QILISHDA MUTLAQO YANGI FORMATGA O‘TILADI

11-iyun kuni Xalqaro kongress markazida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining uchinchi yalpi majlisi bo‘lib o‘tdi.



Davlatimiz rahbari raisligida o‘tgan tadbirida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso, “Masdar”, “Indorama”, “ACWA Power”, “Vision Invest”, “DataVolt”, “Veon”, “Boeing”, “Air Products”, “SpaceX”, “Meta”, “John Deere”, “Franklin

Templeton”, “Suez”, “EDF”, “Total Energies”, “Volitalia”, “Orano”, “Linde”, “Claas”, “Sojitz”, “Bomi”, “OTP Bank”, “Goldwind”, “Çalik”, “Çengiz”, “Aksa”, “JBIS” kabi yetakchi kompaniya va banklar rahbarlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari — Iqtisodiy

hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi vakillari ishtirok etdi.

► Davomi 2-betda

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda O‘zbekiston

1,1 milliard yevro jalb qilish rejalashtirilgan bo‘lib, uning katta qismi xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi.

Suv ta‘minoti tizimini texnologik jihatdan modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish dasturini ilgari



ushbu nufuzli xalqaro moliyaviy institut o‘rtasidagi strategik hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Qo‘shma loyihalar portfeli kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi: YTTBning O‘zbekistonga investitsiyalari 5,5 milliard yevrodan oshdi. Joriy yilda yana

Sheriklik strategiyasi samarali amalga oshirilmoqda. YTTBning faol ko‘magi bilan bank sohasi transformatsiya qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari hamkorlik natijadorligini oshirish muhimligini ta‘kidlab, uning asosiy ustuvor yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tdi.

surish, ipoteka bozorini, erkin iqtisodiy zonalar infratuzilmasini rivojlantirish, kichik va o‘rta biznes imkoniyatlarini kengaytirish, ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlar shular jumlasidan.

Ta‘lim va tibbiyot sohalarida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ilgari surish,

Bunday formatdagi do‘stona muloqotlarimiz o‘zining amaliy natijadorligi, yangi-yangi loyihalarni ro‘yobga chiqarishga qo‘shayotgan beqiyos hisssasi bilan alohida ajralib turadi.

Avvalgi uchrashuvlarimiz o‘z samarasini bera boshladi. Shu o‘rinda ayrim misollarni keltirib o‘tmoqchiman.

Xalqaro moliya tashkilotlari bilan mutlaqo yangicha ishlashga o‘tib, aniq natijaga qaratilgan samarali hamkorlik tizimini joriy etdik. Xususan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki o‘tgan yili

O‘zbekistonga rekord miqdorda — 1 milliard dollarga yaqin investitsiya kiritdi. Mamlakatimiz ushbu bankning mintaqadagi eng yirik hamkoriga aylandi.

Bunday yutuqlarimizda Reno-Basso xonimning ulkan hisssasi borligini, albatta, yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz. Yana bir bor sizga o‘z minnatdorligimni bildiraman.

Shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlarining xususiy sektor bilan hamkorligi keskin kuchayib, ular bir qator ilg‘or korxonalarga to‘g‘ridan to‘g‘ri

XORIJIY INVESTORLAR KENGASHINING UCHINCHI MAILISI DOIRASIDAGI SAMIMIY MULOQOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-iyun kuni Xorijiy investorlar kengashining uchinchi majlisi doirasida bir qator nufuzli tashkilotlar rahbarlari boshchiligidagi delegatsiya vakillarini qabul qildi.



sun‘iy intellektni joriy qilish va raqamli transformatsiyaga qaratilgan startaplarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratildi.

Lombardiya Italiyaning aholisi eng ko‘p va yirik hududlaridan biri bo‘lib, Yevropaning iqtisodiy jihatdan rivojlangan viloyatlari qatoriga kiradi.

Lombardiya viloyati gubernatori Attilio Fontana boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda o‘zaro manfaatli hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy

Bugungi kunda mamlakatimizda Lombardiya kompaniyalari bilan hamkorlikda pomidor, za‘faron yetishtirish, noto‘qima mato va trikotaj, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Tayyor tekstil, avtoelektronika, qurilish materiallari ishlab chiqarish, sut va mevasabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, jamoat transportini rivojlantirish va boshqa loyihalar ustida ish olib borilmoqda.

savdo uyi ochish va “Uzbek Organic” brendi ostida eksport liniyasini ishga tushirishga kelishib olindi.

Madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirish maqsadida 2026-yilda Milanda O‘zbekiston muzeylarining ko‘rgazmasini tashkil etish masalasi o‘rganilmoqda.

Gubernator, o‘z navbatida, Lombardiya ishbiarmon doiralarining loyiha va tashabbuslari har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotgani uchun



sheriklikni rivojlantirishning amaliy jihatlari muhokama qilindi.

Yaqinda Samarqand shahrida Bosh vazir Jorja Meloni bilan o‘tgan muzokaralarning natijalari, ular davomida hududlararo aloqalarni qo‘llab-quvvatlashga kelishib olingani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Qo‘shma loyihalar portfeli kengaytirish, Italiyaning ilg‘or texnologiyalari va investitsiyalarini O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlariga yanada keng jalb qilish muhimligi qayd etildi.

Milan shahrida O‘zbekistonning sanoat va eksport salohiyati ko‘rgazmasini o‘tkazish,

Prezidentimizga samimiy minnatdorlik bildirdi. O‘zbekiston hududlari bilan keng ko‘lamli sheriklikni yo‘lga qo‘yishga har tomonlama ko‘maklashishga tayyorligini tasdiqladi.

► Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING XORIJIY INVESTORLAR KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Hurmatli yig‘ilish ishtirokchilari! Hurmatli Odil Reno-Basso xonim! Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yig‘ilishida sizlar bilan uchrashib turganimdan behad xursandman.

Biz kecha Xalqaro investitsiya forumida iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish masalalarini, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlarni atroflicha muhokama qildik.

Bugun esa sizlar bilan tajriba almashish, aniq loyihalarimizni amalga oshirish, yangi tashabbus va takliflar bo‘yicha yaqindan maslahatlashib olamiz.

Bunday formatdagi do‘stona muloqotlarimiz o‘zining amaliy natijadorligi, yangi-yangi loyihalarni ro‘yobga chiqarishga qo‘shayotgan beqiyos hisssasi bilan alohida ajralib turadi.

Avvalgi uchrashuvlarimiz o‘z samarasini bera boshladi. Shu o‘rinda ayrim misollarni keltirib o‘tmoqchiman.

Xalqaro moliya tashkilotlari bilan mutlaqo yangicha ishlashga o‘tib, aniq natijaga qaratilgan samarali hamkorlik tizimini joriy etdik. Xususan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki o‘tgan yili

O‘zbekistonga rekord miqdorda — 1 milliard dollarga yaqin investitsiya kiritdi. Mamlakatimiz ushbu bankning mintaqadagi eng yirik hamkoriga aylandi.

Bunday yutuqlarimizda Reno-Basso xonimning ulkan hisssasi borligini, albatta, yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz. Yana bir bor sizga o‘z minnatdorligimni bildiraman.

Shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlarining xususiy sektor bilan hamkorligi keskin kuchayib, ular bir qator ilg‘or korxonalarga to‘g‘ridan to‘g‘ri

investitsiyalar kiritishdi. Jumladan, bir yil davomida ularning xususiy kompaniya va banklar bilan qo‘shma loyihalari hajmi 1 milliard dollardan ortdi.

Yana bir yo‘nalish. Bugun bu uchrashuvda qatnashayotgan kompaniyalar “yashil” energiya, chiqindilarni qayta ishlash, elektr energiyasini saqlash, “yashil” vodorod ishlab chiqarish kabi ilg‘or sohalarida yangi loyihalarni boshlaganini alohida ta‘kidlamogochiman.

► Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA YETAKCHILARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Rossiya yetakchisi va ko‘p millatli xalqini yaqinlashib kelayotgan davlat bayrami — Rossiya kuni bilan samimiy tabriklandi.

O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, oliy darajadagi uchrashuvlarda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zaro tovar ayirboshlash sur‘atini saqlab qolish va sanoat kooperatsiyasi loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida muvofiqlashtirilgan choralar ko‘rishga alohida e‘tibor qaratildi. Ikki mamlakat hududlari darajasidagi faol almashinuvlar va amaliy hamkorlikni davom ettirish muhimligi ta‘kidlandi.

Shuningdek, O‘zbekiston va Rossiyada madaniy tadbirlar muntazam o‘tkazib kelinayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING XORIIY INVESTORLAR KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Bu borada “Acwa Power”, “Masdar”, “Linde”, “Shanghai Environment”, “Total Energies” singari yetakchi kompaniyalar

8 milliard dollardan ziyod investitsiya kiritib, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga katta hissa qo‘shmoqda.

Raqamli texnologiyalar sohasida ham dunyo tan olgan nufuzli kompaniyalar yurtimizga jadal kirib kelmoqda. Ayniqsa, “DataVolt” kompaniyasi mintaqadagi eng yirik “yashil data markaz”ni, “Veon” kompaniyasi sun’iy intellektaga asoslangan mobil superilovani yaratish bo’yicha loyihalarni boshlagani bizni juda quvontiradi.

Hech shubhasiz, bunday loyihalar kelajqning mustahkam poydevori bo’lib xizmat qiladi.

Bunday misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin.

Buni xorijiy investorlarning islohotlarimizga bo’lgan yuksak ishonchi, ochiqlik siyosatimizning yaqqol misoli, deb bilaman.

Kengashimiz a’zolari bo’lgan Xalqaro moliya korporatsiyasi, “Ernst & Young”, “Dentons”, “Knauf”, “TBC” kabi kompaniyalar milliy qonunchilikni xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish bo’yicha qator takliflar berdi. Sizlarning yangi tashabbus va g’oyalaringiz 10 dan ortiq qonun, farmon va qarorlarimizda o’z aksini topdi.

Umuman olganda, yurtimizda ishlayotgan investorlarning faolligi oshib, so’nggi ikki yilda chet el kapitali ishtirokidagi 5,5 mingga yangi korxona tashkil etildi. Ularning umumiy soni 16 mingga yetdi.

Hurmatli do’stlar!

Biz bugungi uchrashuvga mutlaqo boshqacha tayyorgarlik ko’rdik. Xorijiy korxonalar bilan birma-bir gaplashib, bildirilgan 40 dan ziyod tashabbuslarni saralab oldik. Jumladan, sarmoyadorlar soliq qonunchiligi barqarorligini ta’minlash, to’g’ridan to’g’ri amal qiladigan qonunlarni ko’paytirish, infratuzilma sohaslarida xususiy sektor ulushini oshirish bo’yicha takliflarni berdilar.

Biz ularning barchasini albatta, inobatga olamiz va Kengash a’zolari bilan har bir taklif ustida jiddiy ishlayapmiz. Masalan, 2028-yilga qadar biznes uchun asosiy soliq stavkalari o’zgarmasligini e’lon qildik. Joriy yilda yo’l, transport, energiya, suv, irrigatsiya sohaslarida qariyb 4,5 milliard dollarlik davlat-xususiy sheriklik loyihalarini boshladik. Xalqaro moliya hisobotlari standartlariga o’tish hamda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruvni joriy etish bo’yicha normativ huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda.

Ko’p murojaatlar elektr tarmoqlariga ulanish bo’yicha kelib tushdi. Bunda, albatta, eng ilg’or xorijiy tajribadan foydalanishimiz shart va zarur. Shuning uchun bu borada Kengashimiz qoshida alohida ishchi guruh tuzib, aniq mexanizmlarni ishlab chiqishni taklif qilaman.

Tushgan takliflardan kelib chiqib, garov to’g’risidagi qonunchilikni takomillashtirish, xorijiy kompaniyalar uchun professional kadrlarni tayyorlash, mahalliy kompaniyalarda korporativ boshqaruvni yaxshilash, soliq ma’murchiligi bo’yicha qo’shimcha ishchi guruhlar tashkil etiladi.

O’tgan yig’ilishimizda kun tartibidagi eng dolzarb yo’nalishlarda — raqamlashtirish, mas’uliyatli biznes yuritish va muqobil investitsiya bo’yicha ishchi guruhlar tuzib olgan edik. Bugun

ularning taqdimotlari bilan tanishamiz.

Yana bir muhim masala. Oxirgi bir yilda Kengashimiz ishi keskin faollashdi. Shu bilan birga, Kengash kotibiyati nafaqat investitsiya vazirligi bilan, balki boshqa vazirlik va idoralar, xalqaro tashkilot va investorlar bilan ham bevosita ishlayapti. Shuning uchun Kotibiyatning mustaqilligini oshirib, uni alohida yuridik shaxs sifatida qayta tashkil etsak, maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Bu masala bo’yicha ham sizlarning fikrlaringizni bilmoqchi edim.

Aziz do’stlar!

Bugun bo’lib o’tgan sermahsul muloqotlarimizdan juda mamnunman. Ochiq’ini aytganda, sizlardan mana shunday jo’shqin va amaliy fikrlarni kutgan edim.

Har bir taklif va mulohaza batafsil ko’rib chiqiladi.

Hukumatimiz tomonidan alohida “yo’l xaritasi” qabul qilinadi.

Yana bir bor ta’kidlamoqchiman: biz investorlar uchun ochiq, erkin, barqaror va ishonchli mamlakat — Yangi O‘zbekistonni barpo etmoqdami.

Bu yo’ldan boshlagan va ortga qaytmastus olgan islohotlarimizni bundan buyon ham izchil davom ettiramiz.

Sizlarni yurtimizga shunchaki sarmoya kiritishga emas, balki muvaffaqiyatimiz tarixining chinakam ishtirokchilariga, biz yaratayotgan buyuk kelajqning ajralmas qismiga aylanishga chorlaymiz.

Mushtarak intilish va sa’y-harakatlarimiz orqali har bir loyiha samarali hamkorligimizning yorqin namunasiga aylanishiga ishonamiz.

Hammangizga bu ezu yo’lda katta yutuq va yangi omadlar tilayman.

Boshlanishi 1-betda

Kengashning asosiy vazifalari muvaffaqiyatli tajriba va jahon amaliyotidan kelib chiqqan holda mamlakatni investitsiyaviy, sanoat-texnologik va innovatsion rivojlantirishning eng muhim yo’nalishlari bo’yicha maslahat berish hamda O’zbekiston Hukumati bilan xorijiy investorlar o’rtasida ochiq muloqotni ta’minlashdan iborat.

Davlatimiz rahbari majlisni ochar ekan, kuni kecha o’tgan to’rtinchi Toshkent investitsiya forumining samarali natijalarini qayd etdi hamda kengash a’zolariga Yangi O’zbekiston taraqqiyotiga qo’shayotgan hisssasi va ko’magi uchun minnatdorlik bildirdi.

Kengashning avvalgi yig’ilishlari natijador bo’lgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Xususan, xalqaro moliya tashkilotlari bilan ishlashning mutlaqo yangi formatiga o’tildi, samarali hamkorlik tizimi joriy etildi, o’zaro manfaatli sheriklik tarmoqlari kengaydi.

Jumladan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki o’tgan yili O’zbekistonga rekord miqdorda — qariyb 1 milliard dollar investitsiya kiritdi. Mamlakatimiz bankning mintaqadagi eng yirik hamkoriga aylandi.

Shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlarining xususiy sektor bilan hamkorligi sezilarli darajada kuchaydi. Xususiy kompaniya va banklar bilan qo’shma loyihalar hajmi 1 milliard dollardan oshdi.

Bu galgi majlisda ishtirok etayotgan kompaniyalar “yashil” energetika, chiqindilarni qayta ishlash, elektr energiyasini saqlash, “yashil” vodorod ishlab

XORIIY INVESTORLAR KENGASHINING UCHINCHI MAJLISI DOIRASIDAGI SAMIMIY MULOQOTLAR

Boshlanishi 1-betda

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari Attilio Fontanaga 2026-yilda Milan shahrida bo’lib o’tadigan qishki Olimpiadaga tayyorgarlik ko’rish va uni o’tkazishda muvaffaqiyatlar tiladi.

Birlashgan Arab Amirliklari energetika va infratuzilma vaziri Suhayl al-Mazruiy boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda “Amea Power”, “Etihad Water & Electricity”, “TAQA Water Solutions”, “AD Ports” va “Masdar” kompaniyalari rahbarlari ham ishtirok etdi.

Uchrashuv avvalida vazir davlatimiz rahbariga BAA Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon, Bosh vaziri, Dubay amiri Shayx Muhammad Ol Maktum, Vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayon va Abu-Dabi Amirigi valiahdi Shayx Holid Ol Nahayonning salomi va eng ezu tilaklarini yetkazdi.

O’zbekiston Prezidentining joriy yil yanvar oyidagi BAAGA tashrifi yakunida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko’rib chiqildi.

O’zbekiston — BAA strategik sheriklik munosabatlari jadal rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi, qo’shma korxonalar va to’g’ridan to’g’ri aviaqatnovlar soni oshmoqda.

Amirliklarning yetakchi kompaniyalari ishtirokidagi loyihalar portfeli 20 milliard dollardan ortdi. To’rtinchi Toshkent investitsiya forumi doirasida BAA kompaniyalari bilan qator yangi kelishuvlar imzolandi.

Energetika, transport, logistika, qishloq xo’jaligi, sog’liqni saqlash, ta’lim, shaharsozlik, suv ta’minoti va boshqa yo’nalishlardagi yirik loyihalarni jadallashtirishga kelishib olindi.

O’zbekiston — Saudiya Ishbilarmonlar kengashi hamraisi “ACWA Power” kompaniyasi boshqaruvi raisi Muhammad Abunayyan boshchiligidagi yirik kompaniyalar delegatsiyasi bilan uchrashuvda “Vision Invest” va “Riyadh Cables” kompaniyalari rahbarlari ham ishtirok etdi.

Ushbu mamlakat ishilarmonlari bilan amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish

va yurtimizdagi ustuvor loyihalarni jadallashtirish masalalari ko’rib chiqildi.

Saudiyaning “ACWA Power” va boshqa kompaniyalari bilan sermahsul sheriklik yo’lga qo’yilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bugungi kunda qo’shma loyihalar portfeli 24 milliard dollarga yetgan. “Yashil” energetika sohasidagi loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Toshkent viloyatida “yashil” vodorod ishlab chiqarish yo’lga qo’yildi.

Elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, elektrotexnika sanoatini rivojlantirish, axborot texnologiyalari, transport, kommunal xo’jaligi va boshqa yo’nalishlardagi loyihalarni ilgari surish muhimligi ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari Xitoyning “China State Construction”, “China General Nuclear Power”, “CAMCE”, “Goldwind” va “ZTO Express” kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashuvda Xitoy biznesining O’zbekistonga qiziqishi har doimgidek yuqori ekanini mamnuniyat bilan qayd etdi. O’tgan yilning o’zida ushbu mamlakatdan jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10 milliard dollardan oshdi.

“China State Construction” kompaniyasi direktorlar kengashi raisi Chjen Syuesuan bilan subhatda Toshkent shahrida madaniyat obyektlarini tashkil etish bo’yicha istiqbolli rejarlar muhokama qilindi.

Toshkent viloyatida sanoat zonasini barpo etish loyihasini boshlash hamda kompaniya avtomobil yo’llari qurilishida ishtirok etishi to’g’risida kelishib olindi.

“China General Nuclear Power” korporatsiyasi raisi Yan Chanli bilan muzokaralarda tog’-kon sanoatida sheriklikni mustahkamlash masalalari diqqat markazida bo’ldi. Geologiya-qidiruv ishlarini jadallashtirish va yangi konlarni o’zlashtirishga qiziqish bildirildi. Kompaniyaning gibrid quyosh elektr stansiyasini qurish va bojkona yuklarini skanerlash texnologiyalarini joriy qilish rejalari qo’llab-quvvatlandi.

“CAMCE” korporatsiyasi raisi Van Bo bilan poytaxtimizda Olimpiya shaharchasini barpo etish bo’yicha birgalikda amalga

oshirilgan ishlar sarhisob qilindi. Kompaniya boshqaruvida Toshkent shahridagi “Yangi avlod” industrial texnoparki jadal rivojlanayotgani qayd etildi.

Qo’shma tashabbuslar portfeli kengaytirish, xususan, elektr energetikasi va Yangi Toshkent shahrini infratuzilmaviy rivojlantirish loyihalarini jadallashtirishga alohida e’tibor qaratildi.

“Goldwind” kompaniyasi raisi Vu Gang bilan kompaniyaning “yashil” energetikani rivojlantirishdagi ishtiroki yuzasidan fikr almashildi. O’zbekistonda kompaniya bilan birgalikda shamol elektr stansiyalari uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarish yo’lga qo’yilgan.

Shamol generatorlari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va joriy loyihalarni faollashtirishga kelishib olindi.

“ZTO Express” kompaniyasi rahbari Xu Syanlyan davlatimiz rahbariga O’zbekistonda tovarlarni bojkona rasmiylashtiruvidan o’tkazishga ko’maklashish bo’yicha onlayn platformani ishg tushirish va “aqli” logistika omborlarini tashkil etish niyati haqida ma’lumot berdi.

O’mon Sultonligi savdo, sanoat va investitsiyalarga ko’maklashish vaziri Qays bin Muhammad al-Yusuf bilan uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga O’mon Sultoni Haysam bin Toriq Ol Saidning samimiy salomini yetkazdi.

Amaliy hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot va investitsiya sohaslarida kengaytirish masalalari ko’rib chiqildi.

Turli darajalardagi faol muloqotlar mamnuniyat bilan qayd etildi. Forum doirasida Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig’ilishi va ishilarmon doiralarining uchrashuvlari bo’lib o’tadi.

Energetika, geologiya, oziq-ovqat, to’qimachilik, kimyo sanoati, transport va logistika, turizm, moliya sohaslarida qo’shma loyihalarni, shu jumladan, O’zbekiston — O’mon investitsiya kompaniyasining faol ko’magida ilgari surish muhimligi qayd etildi.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining amaldagi raisi, Finlyandiya tashqi ishlar vaziri Elina Valtonen bilan subhat avvalida oliy martabali mehmon davlatimiz rahbariga Finlyandiya Prezidenti Aleksandr Stubbnig salomi va eng ezu tilaklarini yetkazdi.

O’zbekiston bilan YXHT o’rtasida amaliy aloqalarni mustahkamlash hamda O’zbekiston — Finlyandiya hamkorligini yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Milliy saylov tizimini modernizatsiya qilish, ommaviy axborot vositalari erkinligini ta’minlash, gender va yoshlar masalalari, “yashil” kun tartibi bo’yicha tashkilot bilan konstruktiv hamkorlik rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Iqlim xavfsizligi va barqaror rivojlanish masalalariga e’tiborni kuchaytirish muhimligi ta’kidlandi.

O’zbekiston — Finlyandiya munosabatlarining, eng avvalo, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi kun tartibi batafsil ko’rib chiqildi.

Mintaqaviy masalalar yuzasidan ham fikr almashildi, bo’lajak tadbirlar rejai ko’rib chiqildi.

Afg’oniston sanoat va savdo vaziri vazifasini bajaruvchi Nuriddin Aziziy bilan subhat avvalida yuqori martabali mehmon O’zbekiston yetakchisiga Afg’oniston rahbariyatining samimiy salomini yetkazdi.

Savdo-iqtisodiyot, transport-logistika, energetika va agrar sohalarda, shuningdek, geologiya-qidiruv va foydali qazilmalar borasidagi o’zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko’rib chiqildi.

Ishbilarmonlik aloqalari faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O’zaro tovar ayirboshlash hajmi, qo’shma korxonalar soni ortmoqda, ikki mamlakat kompaniyalari ishtirokida biznes tashriflari va ko’rgazmalar muntazam o’tkazilmoqda. Termiz shahrida Xalqaro savdo markazi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Joriy yilning may oyida Kobul va Mozori Sharif shaharlarida savdo uylari ochildi.

O’zbekiston rahbari iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash muhimligini ta’kidladi.

Shuningdek, “Hayraton” sanoat markazini tez fursatda barpo etish, y yerda farmatsevtika, mebelsozlik, to’qimachilik mahsulotlari, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlash quvvatlarini joylashtirish zarurligi ta’kidlandi.

chiqarish va boshqa sohalarda yangi loyihalarni boshladi.

Xususan, “ACWA Power”, “Masdar”, “Linde”, “Shanghai Renewable Energy” va “Total Energies” kompaniyalari 8 milliard dollardan ziyod investitsiya kiritib, “yashil” iqtisodiyot rivojiga katta hissa qo’shmoqda.

O’zbekistonning raqamli texnologiyalar sohasiga jahonga mashhur nufuzli kompaniyalar ham faol kirib kelmoqda. “DataVolt” kompaniyasi mintaqadagi eng yirik “yashil” ma’lumotlar markazini barpo etish, “Veon” esa sun’iy intellektaga asoslangan mobil superilovani yaratish bo’yicha loyihalarni amalga oshirmoqda.

— Buni xorijiy investorlarning islohotlarimizga bo’lgan yuksak ishonchi, ochiqlik siyosatimizning yaqqol misoli, deb bilaman, — dedi Prezident.

Kengashga a’zo Xalqaro moliya korporatsiyasi, “Ernst&Young”, “Dentons”, “Knauf” va “TBC” kompaniyalari tomonidan milliy qonunchilikni xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish bo’yicha qator takliflar bildirildi. Ularning yangi tashabbus va g’oyalari 10 dan ortiq qonun, farmon va qarorlarda o’z ifodasini topdi.

Davlatimiz rahbari biznes uchun bazaviy soliq stavkalari 2028-yilgacha o’zgarmasligini ma’lum qildi.

Umuman, investitsiya muhiti yaxshilangani natijasida so’nggi ikki yilda yurtimizda xorijiy kapital ishtirokida 5,5 mingga yangi korxona tashkil etilib, ularning soni 16 mingga yetdi.

Qayd etilganidek, bugungi uchrashuvga tayyorgarlik doirasida xorijiy hamkorlarning 40 dan ortiq tashabbuslari saralab olindi. Xususan, investorlar

tomonidan soliq qonunchiligi barqarorligini ta’minlash, to’g’ridan to’g’ri amal qiluvchi qonunlar sonini ko’paytirish, infratuzilma loyihalarida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish bo’yicha takliflar bildirildi.

Joriy yilda yo’l qurilishi, transport, energetika, suv ta’minoti, irrigatsiya va boshqa sohalarda qariyb 4,5 milliard dollarlik davlat-xususiy sheriklik loyihalari boshlangan. Moliyaviy hisobotning, shuningdek, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruvning xalqaro standartlariga o’tish bo’yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda.

Kelib tushgan takliflar asosida garov to’g’risidagi qonunchilikni takomillashtirish, xorijiy kompaniyalar uchun professional kadrlar tayyorlash, mahalliy kompaniyalarda korporativ boshqaruvni yaxshilash, soliq ma’murchiligi bo’yicha qo’shimcha ishchi guruhlar tashkil etiladi.

Kengash Kotibiyatining mustaqilligini oshirish va uni alohida yuridik shaxs sifatida qayta tashkil etish taklif etildi.

So’zga chiqqan kengash a’zolari Yangi O’zbekistondagi keng ma’lamli islohotlar dasturi natijalarini yuqori baholadi. Davlatimiz rahbariga investitsiyaviy faoliyatni har tomonlama qo’llab-quvvatlayotgani va o’zaro manfaatli hamkorlikni davom ettirishga qat’iy intilishi uchun minnatdorlik bildirildi.

Hukumatga barcha tashabbuslarni batafsil ko’rib chiqish va ularning amaliy ijrosini nazoratga olish topshirildi. Shuningdek, har bir loyiha bo’yicha alohida “yo’l xaritasi” qabul qilish yuzasidan ko’rsatma berildi.

O’ZA

“International Hospitals Group” boshqaruvi raisi Chester King bilan klinika qurish rejalari, shuningdek, O’zbekistondagi ko’p tarmoqli tibbiyot markazlarini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqarish masalalari muhokama qilindi.

Toshkent-sitida “LVMH” flagman do’konini ochishni tezlashtirish muhimligi qayd etildi. Shuningdek, O’zbekistondagi ipak va tabiiy xomashyo ishlab chiqaruvchilarni kompaniyaning ta’minot zanjiriga kiritish imkoniyatlari ko’rib chiqildi.

“Airbus” kompaniyasining Yevropadagi prezidenti Yoxan Pelisye bilan subhatda aviatsiya sohasidagi sheriklikni kengaytirish istiqbollarga alohida e’tibor qaratildi. Uzoq muddatli Hamkorlik dasturini qabul qilish muhimligi ta’kidlandi.

Yevropa kompaniyalari rahbarlari O’zbekiston Prezidentiga samimiy qabul va mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay sharoitlar uchun minnatdorlik bildirdi. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida muhim loyiha va dasturlarni amalga oshirishda bundan buyon ham ishtirok etishga tayyorligini ma’lum qildi.

“Euronews” media xoldingi direktorlar kengashi raisi Pedro Vargas bilan uchrashuvda ushbu yetakchi kompaniya bilan hamkorlikni rivojlantirish, jumladan, “Euronews”ning keng auditoriyasini O’zbekistonning boy madaniy-tarixiy merosi, mamlakatda ro’y berayotgan muhim siyosiy-iqtisodiy jarayonlar, shuningdek, uning investitsion va turizm salohiyati to’g’risida xabardor qilish masalalari ko’rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari qo’shma axborot loyihalarini amalga oshirish va professional kadrlar tayyorlash borasidagi faol sa’y-harakatlarni, shuningdek, “Euronews” Toshkent shahrida o’z ofisini ochishni rejalashtirayotganini olqishladi.

“Euronews Academy” dasturi doirasida o’zbekistonlik jurnalistlarni ilg’or professional standartlar asosida o’qitish rejalari qo’llab-quvvatlandi.

Barcha istiqbolli yo’nalishlar bo’yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida qo’shma “yo’l xaritasi”ni tayyorlashga kelishib olindi.

O’ZA

YANGI O‘ZBEKISTON

SARMOYADORLAR ISHONCHI VA QIZIQISHI OSHYAPTI

INVESTITSİYALAR HAJMI-CHI?

Nodirbek RASULOV,
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti loyiha rahbari, iqtisodiyot fanlari doktori

Dunyoda yuz berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatning investitsion muhiti qay darajada jozibador bo‘lishi, birinchi navbatda, ushbu yo‘nalishdagi siyosatni to‘g‘ri yuritish, hududlarda investitsion faollikni ta‘minlash mexanizmlari ishlashiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq.

Global bozor iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanib borar ekan, bu, o‘z navbatida, ko‘pgina mamlakatlar iqtisodiyotiga doimiy ravishda katta miqdorda investitsiya kiritishni taqozo etadi. Chunki aksar davlatlarda buning uchun o‘z ichki resurslari yetarli bo‘lmaydi. Ana shunda mazkur davlatlar iqtisodiyotiga tashqi investitsiyalarni jalb etish uchun mahalliy va xorijiy investorlarga har tomonlama sharoit yaratishga zarurat seziladi. Bu, albatta, mamlakatdagi investitsion muhitning qanday darajada shakllanganiga bog‘liq.

Umuman olganda, xorijiy investorlarga qulay investitsion muhit yaratish orqaligina iqtisodiyotga katta miqdorda investitsiyalarni jalb etish mumkin. Dunyo bozorida raqobat qoidalari tez o‘zgarib borayotgan hozirgi sharoitda qaysi bir davlat investitsion jozibadorlik nuqtayi nazaridan yaxshi sharoit yaratib bersa, o‘sha yurtga xorijidan ko‘proq sarmoya kirib keladi.

Shu bois, 2022-yildan boshlab Toshkent shahrida xalqaro investitsiya forumi o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yildi va ayni paytda an‘anaga aylanib ulgurd. 2022-yilning 24-26-mart, 2023-yilning 27-28-aprel hamda 2024-yilning 2-3-may kunlari Toshkent shahrida xalqaro investitsiya forumi o‘tkazilgan. 2022-yilgi birinchi forumda 7,8 milliard AQSH dollariga teng shartnoma va investitsiyaviy bitimlar paketi imzolangan edi. Shuningdek, qiymati 3,5 milliard AQSH dollarlik investitsion loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha dastlabki kelishuvlarga erishilgan. Jahonning 56 mamlakatidan yirik investorlar va yuqori martabali mehmonlarni birlashtirgan, 2 mingdan ortiq ishtirokchi qatnashgan.

2023-yilda bo‘lib o‘tgan ikkinchi forumda 70 dan ortiq davlatdan 2,5 mingga yaqin vakil ishtirok etgan. Forum doirasida xorijlik sherkatlarga O‘zbekiston hududlarining investitsiya salohiyati va 160 dan ortiq yirik loyiha taqdimot qilingandi. Forumning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy aloqalar sohasida katta natijalarga erishish hamda rivojlangan kompaniyalar misolida tajriba va bilimlar almashish, shuningdek, hamkorlik geografiasini kengaytirish edi.

O‘tgan yili o‘tkazilgan uchinchi forumda 84 ta davlatdan qariyb 2500 kishi, jumladan, BMT, YTTB, OPEK, SHHT kabi xalqaro tashkilotlardan mehmonlar qatnashdi. Forumda jami qiymati 26,6 milliard AQSH dollariga teng kelishuvlar imzolandi. Natijada forum global muloqot va investitsiyaviy sohadagi ilg‘or tajriba almashish maydoniga aylandi.

O‘tkazilgan xalqaro darajadagi investitsion forum, unda kelishilgan shartnoma hamda amalga oshirilgan investitsiyaviy loyihalar evaziga 2024-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 6,5 foiz oshib, 115 milliard dollarga yetdi. Xorijiy investitsiya 1,6 barobar o‘shib, qariyb 35 milliard AQSH dollarini tashkil qildi. Qiymati 10 milliard AQSH dollarlik 242 ta yirik va o‘rta loyiha ishga tushdi. Eksport ilk bor 27 milliard dollarga yetdi.

2024-yilda O‘zbekistondagi tog‘-kon, neft-gaz, kimyo, qishloq xo‘jaligi sohalarida investitsiya 2 karra oshgan holda 50 ta tumanga 100 million dollardan ko‘p sarmoya kirib kelgan. Joriy yilda xalqaro moliya institutlari hisobidan 5 milliard 200 million dollarlik ishlar rejalashtirilgan. Xususan, Yevropa tiklanish va taraqqiyoti banki bilan 1 milliard 100 million AQSH

YANGI O‘ZBEKISTON – INVESTORLAR UCHUN ULKAN IMKONIYATLAR MAMLAKATI

USHBU TAMOIYILNI AMALIY NATIJAGA AYLANTIRISHNING BARCHA CHORASI KO‘RILYAPTI

Dunyodagi turli mojarolar, o‘zaro nizolashuvlar, qurolli to‘qnashuv va savdo urushlari tufayli jahon iqtisodiyoti jiddiy zarar ko‘rmoqda. Bu, o‘z navbatida, millionlab zamondoshimizning to‘g‘ri ovqatlanish, sog‘lig‘ini tiklash, sifati ta‘lim olish bilan bog‘liq zarur hayotiy ehtiyojlarini ta‘minlashga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ana shunday murakkab sharoitda barqaror taraqqiyotga erishish investitsiyalarga bog‘liq bo‘lib qolyapti. Investorlar ham bunday mavhum vaziyatda tinch, o‘z tanlagan taraqqiyot yo‘lidan og‘ishmay borayotgan davlatlarga sarmoya yo‘naltirayotgani ayni haqiqat.



Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senati a‘zosi

Munosabat

Shu ma‘noda, mamlakatimizda keyingi yillarda qulay investitsiya muhitini yaratish, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni faol jalb qilish va o‘zlashtirish, hamkor davlatlar ishtirokidagi qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, sohada faoliyat yuritayotgan mahalliy va xorijiy investor hamda tadbirkorlarning huquqlarini kafolatlashga alohida e‘tibor qaratilayotgani ayni muddao bo‘lmog‘da.

An‘anaviy ravishda o‘tkazib kelinayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi bu borada alohida ahamiyatga ega. Zero, ushbu forum O‘zbekistonning investitsiyalar uchun katta imkoniyatlar mamlakati ekanini butun dunyoda namoyon qilyapti.

Ayni paytda davom etayotgan to‘rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida 7500 dan ortiq delegat, jumladan, 100 ga yaqin davlatdan salkam 3000 xorijiy mehmon ishtirok etayotgani, ular safida qator davlat va hukumatlar, xalqaro moliya tashkilotlari rahbarlari borligi forumning nufuzidan dalolat beradi, albatta.

Prezidentimiz forumda so‘zlagan nutqida jahonda global xavfsizlik va barqaror rivojlanishga jiddiy tahdidlar kuchayib, geosiyosiy jarayonlar shiddat bilan o‘zgarib borayotganiga e‘tibor qaratdi. Darhaqiqat, jahonda qurollanish poygasi tufayli yirik mamlakatlarning harbiy xarajati 2010-yilga nisbatan bir yarim barobar ortib, 2,5 trillion dollardan oshib ketdi. Iqtisodiy inqiroz asoratlari, moliyaviy resurslar taqchilligi sabab jahon yalpi ichki mahsulotining o‘shish sur‘ati ketma-ket uch yildan buyon pasaymoqda.

keltirishi bilan birga, inson qadrini ulug‘laydigan, hayotiy manfaatlarini ta‘minlaydigan va jamiyat ravnaqiga xizmat qiladigan mustahkam poydevorga aylanishi kerak.

Bu chaqiriq mamlakatimizdagi islohotlarning asosi faqat inson qadrini ulug‘lashdek ezgu maqsadlarga qaratilganini anglatadi.

Investitsiya samaradorligini oshirish jarayonining ustuvor yo‘nalishlari davlat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar va qo‘llab-quvvatlovning uyg‘unlashgan holda amalga oshirilishiga bog‘liq. Qayd etilganidek, yalpi ichki mahsulotimiz sakkiz yilda 2 barobar ko‘paydi, 2030-yilga borib, bu ko‘rsatkichni 200 milliard dollarga yetkazish asosiy maqsad sifatida belgilangan. O‘tgan yili investitsiya qiymati 35 milliard dollarga, eksport 27 milliard dollarga yetgani esa to‘rt yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumining amaliy natijasi sifatida ko‘rilmoqda.

Bugun dunyo iqtisodiyoti yangi davr va o‘zgarishlar ostonasida turganini barchamiz yaxshi tushunamiz. Bu esa barqaror rivojlanish yo‘lidan borayotgan davlatlarni beshta yo‘nalishda hamkorlikda ishlashga undamoqda.

Birinchidan, “yashil” iqtisodiyot modeliga o‘tish. Iqtisodiyotni barqaror energiya resurslari bilan ta‘minlash uchun aynan “yashil” energetikani rivojlantirishga harakat qilinmoqda. O‘tgan qisqa davrda bu sohaga qariyb 6 milliard dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya kirib



Shuningdek, insoniyat uchun eng dolzarb muammolar — oziq-ovqat xavfsizligi, kambag‘allik, iqlim o‘zgarishlari kabi masalalarga e‘tibor kamaymoqda. Bunday sharoitda dunyoda tinchlik, adolat va inson qadriga umumiy ishonchni tiklash har qachongidan ham muhim. Zero, Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, investitsiya daromad

keldi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 59 milliarddan 82 milliard kilovatt-soatga yetdi. Keyingi besh yilda bu ko‘rsatkich 120 milliard kilovatt-soatdan oshib, “yashil” energiya ulushi 54 foizga yetadi. Shuningdek, elektr tarmoqlarini yangilashga ham 4 milliard dollar jalb qilinadi.

Bugun dunyoning nomdor brendlari, salohiyatli kompaniyalari katta-katta rejalar bilan mamlakatimizga sarmoya kiritmoqda. Bu esa yangi O‘zbekiston jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi. Eng muhimi, barcha soha zamon talablariga mos modernizatsiya qilinmoqda. Har bir islohot va tashabbusda inson kapitaliga daxldor eng bebaho manfaatlar ustuvorlik kasb etmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro iqtisodiy sheriklikni izchil kengaytirib, jahon savdo va kooperatsiya zanjirining bir bo‘lagiga aylanmoqda. Bu jarayonning kuchli drayveri, albatta, xalqaro va ikki tomonlama hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beruvchi sammlilar, forum va yuqori darajadagi muloqotlardir.

Toshkent shu kunlarda yana bir bor xalqaro ahamiyatga molik voqealar markaziga aylandi. Poytaxtimizda to‘rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi bo‘lib o‘tmog‘da.

Mazkur forum global maydonda biznesni rivojlantirish va sarmoyalarni jalb qilishning eng samarali platformalaridan biriga aylanib ulgurd. Zero, bu yerda har bir ishtirokchi umumiy manfaatlariga doir talabga taklif topishi, muayyan investitsiya holatlarini o‘rganishi, turli yo‘nalishlarda so‘nggi tendensiyalarni

IV TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMI

IQTISODIY INTEGRATSIYA VA TRANSFORMATSIYA UCHUN MUHIM MAYDON

muhokama qilishi va o‘zi uchun foydali, istiqbolli takliflarni qabul qilishi mumkin.

Qisqasi, ishtirokchilar investitsiya muhitini aniq his qiladi. Shu bois, biznes zavqi va shiddati bilan forumda 7500 dan ortiq delegat, jumladan, qariyb 100 mamlakatdan 3000 ga yaqin xorijiy mehmon qatnashyapti.

Eng muhimi, ushbu nufuzli anjuman dunyodagi iqtisodiy notinchlik fonida barqaror o‘shish sur‘atlarini namoyish etibgina qolmay, Markaziy Osiyoning chin ma‘nodagi sarmoyaviy markaziga aylanib borayotgan O‘zbekiston salohiyatini namoyish etish uchun beqiyos imkoniyatdir.

Davlatimiz rahbari forumdagi nutqida tadbirning ahamiyatini yuqori baholab, “Hozirgi qiyin sharoitda biz O‘zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishga asosiy e‘tibor qaratyapmiz. Yalpi ichki mahsulotimiz sakkiz yilda 2 barobar ko‘paydi. 2030-yilga borib, bu ko‘rsatkichni 200 milliard dollarga yetkazishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yidik. O‘tgan yili investitsiya hajmi 35 milliard dollarga, eksportimiz 27 milliard dollarga yetgani — to‘rt yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumining ham amaliy natijasidir”, dedi.

Nuqtayi nazar



Shuningdek, Prezidentimiz barqaror rivojlanish yo‘lidan borayotgan mamlakatlarga to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha muhim tashabbusni ilgari surdi. Birinchisi, “yashil” iqtisodiyot modeliga o‘tish. Ikkinchisi, raqamli texnologiya

karra ko‘paytirayotganidan kelib chiqib, mintaqamizni mineralardan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish “xabi”ga aylantirish.

— Bugun mamlakatimizdagi islohotlar samarasi xalqaro reytinglarda ham munosib aksini topmoqda, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Muhsin Xolmuhamedov. — Xususan, Iqtisodiy erkinlik indeksidagi o‘rnimiz so‘nggi besh yilda 48 pog‘ona ko‘tarildi. O‘tgan oyda nufuzli S&P agentligi O‘zbekistonning suveren reytingi prognozini “barqaror”dan “ijobiy”ga oshirdi.

Bugun dunyo iqtisodiyoti yangi davr va o‘zgarishlar ostonasida turganini barchamiz ko‘rib, his qilib turibmiz. Jumladan, keyingi yillarda iqtisodiy inqirozlar, davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, pandemiya, transport-logistika sohasidagi to‘siqlar kabi qator muammolarga guvoh bo‘lyapmiz. Mana shunday sharoitga qaramay, yurtimizda iqtisodiy o‘shish jadal davom etmoqda. Misol uchun, birligina qo‘shni respublikalar bilan o‘zaro savdo aylanmasi oxirgi besh yilda 3,5 barobar ortib, 13 milliard dollarni tashkil etmoqda.

2022-yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan mazkur forum savdo-iqtisodiy, investitsiya

sohasidagi eng yirik xalqaro muloqot maydonlaridan biriga aylangan. Xususan, o‘tgan davrda 357 ta investitsiya loyihasi bo‘yicha 44 milliard dollarlik kelishuvlarga erishilgan.

Bugun investor uchun qulay sharoit, xavfsizlik, haq-huquqlarini ta‘minlovchi huquqiy-me‘yoriy hujjatlar va ishonch zarur. Mana shunday sharoit yaratilgan davlatga investor keladi va faoliyat yuritadi. Bu omillarning barchasi yurtimizda mavjud.

Forumdagi o‘ziga xos yana bir muhim jihati to‘xtalib o‘tish zarur. Tadbir doirasida ilk bor O‘zbekiston kompaniyalarining loyiha va qo‘shma tashabbuslari namoyish etilayotgan ixtisoslashgan ko‘rgazma tashkil etildi. Bu mahalliy ishlab chiqaruvchilar, yirik korxona va tadbirkorlik subyektlari uchun yaxshi maydon, qulay platforma vazifasini o‘taydi. Shuningdek, xalqaro maydonda tadbirkorlarning mahsulotlarini targ‘ib etish bilan birga, o‘zbek brendini butun dunyoga tanitishga xizmat qiladi.

Ishtirokchilar soni va geografiasiga kengayib borayotgan nufuzli platforma — to‘rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi tom ma‘noda nafaqat hududiy, balki mintaqaviy ahamiyatga ega. Iqtisodiy integratsiya va transformatsiyasi nuqtayi nazaridan turli sohalarida yangi imkoniyatlarni kashf qiladi. Bu shiddat bilan rivojlanayotgan O‘zbekiston brendining haqiqiy sarmoyaviy salohiyatiga daxldor.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

O'ZBEKISTON VA BOLGARIYA YEVROPA – MARKAZIY OSIYO MULOQOTI FAOLLASHGAN BIR SHAROITDA O'ZARO ALOQALARNI YUQORI BOSQICHGA OLIB CHIQMOQDA

O'ZBEKISTON VA BOLGARIYA YETAKCHILARI O'RTASIDA TOSHKENTDA BO'LIB O'TGAN MUVAFFAQIYATLI MUZOKARALAR YAKUNLARI XORIJIY EKSPERTLAR DIQQAT MARKAZIDA

17 yil ichida ilk bor bo'lib o'tgan oliy darajadagi O'zbekiston — Bolgariya sammiti ikki tomonlama munosabatlarda tarixida o'zaro manfaatli hamkorlikning yangi bosqichini boshlab bergan muhim voqea bo'ldi. Bolgariya Prezidenti Rumen Radevning Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etishi, qator muhim hujjatlar va tijorat shartnomalarining imzolangani tomonlarning siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy hamkorlik va gumanitar almashinuvni kengaytirishga qiziqishi ortib borayotganidan dalolatdir.

Xalqaro ekspertlar ta'kidiga ko'ra, mazkur tashrif nafaqat ikki tomonlama, balki aniq ifodalangan geosiyosiy muhit — Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasida faollashib borayotgan o'zaro hamkorlik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Barqaror rivojlanish, transport aloqasi, energetika va raqamli transformatsiyaga o'zaro qiziqish ortib borayotgan bir sharoitda O'zbekiston va Bolgariya rahbarlarining uchrashuvi o'zaro ishonch va pragmatizmga asoslangan sheriklikni mustahkamlash yo'lidagi umumiy intilishni namoyish etdi.

Tahlilchilar, shuningdek, Bolgariya yetakchisining tashrifi sheriklikni sifat jihatidan yanada yuqori bosqichga ko'tarish uchun yangi imkoniyat va istiqbollarni ochadi deya ta'kidlamogda.

Ivan BOTUCHAROV, Yevroparlament deputatining siyosiy maslahatchisi, Yevropa talaba demokratlari xalqaro kotibi:



— Bolgariya va O'zbekiston, kengroq ma'noda Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar dinamikasi o'sishda davom etmoqda. Shu hafta bo'lib o'tayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi, O'zbekiston — Bolgariya biznes-forumi, Bolgariya Prezidenti tashrifi chog'ida ikki tomonlama shartnomalar imzolangani kabi tadbirlar hamkorlik jadal rivojlanib borayotganidan dalolat bermoqda.

Borgan sari yaqinroq bo'lib borayotgan ushbu hamkorlik YI va O'zbekiston

o'rtasidagi umumiy munosabatlarni chuqurlashtirish uchun namuna va katalizator bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo bilan tarixiy va madaniy aloqalarga hamda muhim geosiyosiy mavqega ega Yevropa Ittifoqiga a'zo davlat — Bolgariya bilan hamkorlikni mustahkamlash YI sari strategik darvozani ochadi.

Yosh aholisi, tabiiy resurslari va mintaqaviy aloqalari tobora ortib borayotgan mintaqangiz nafaqat iqtisodiy va savdo hamkorlik, balki ijtimoiy va madaniy almashinuv uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi.

“YI allaqachon Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun asosiy savdo va sarmoyaviy hamkor hisoblanadi, biroq o'sish salohiyati katta. Savdoni osonlashtirish, muayyan bozorlarga kirishni yaxshilash va standartlarni uyg'unlashtirish iqtisodiyotlarimizni yanada chuqurroq integratsiya qilish imkonini beradi.

Bog'liqlik ham bizning hamkorligimizning asosi bo'lishi kerak. Transport va raqamli infratuzilmani takomillashtirish orqali biz yuqori sifatli transport yo'laklarining to'liq salohiyatini ochib, boshqa, unchalik barqaror bo'lmagan yo'nalishlarga bog'liqlikni kamaytirishimiz mumkin. Biz Yevropa va Markaziy Osiyo o'rtasidagi xavfsiz, barqaror va ishonchli aloqadan manfaatdormiz.

“Yashil” o'tish ham hamkorlik uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Markaziy Osiyo suv tanqisligidan tortib, iqlim o'zgarishi ta'siriga ega bo'lgan ekologik muammolarga duch kelmoqda, biroq u toza energiya, ayniqsa, quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish uchun katta resurslarga ega. YI texnologiya transferi, salohiyatni oshirish va qayta tiklanadigan energiya infratuzilmasiga

sarmoya kiritish orqali mintaqani qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Bu sohalarining barchasi bir-biriga bog'langan. Strategik hamkorlik deganda biz bir-ikki yo'nalishni tanlamasdan, barcha sohalar har tomonlama, muvozanatli va o'zaro manfaatli hamkorlikda ish olib borishimizni anglatadi.

Fariza SHOM, Malayziya Islom sivilizatsiyasi instituti direktori:



— Tashrif uzoq yillar davomida dinamik bo'lmagan munosabatlarning “qayta boshlangani”ni ifodalaydi.

17 yillik tanaffusdan so'ng bo'lib o'tgan sammit O'zbekiston — Bolgariya munosabatlarga yangi siyosiy turki beradi. Toshkent hamkorlar ro'yxatini an'anaviy sohalaridan tashqari diversifikatsiya qilish orqali qo'shimcha “Yevropa dividendlari”ni oladi, Sofiya esa tez o'sib borayotgan Markaziy Osiyo bozoriga va mintaqaning boshqa iqtisodiyotlari bilan hamkorlik qilish uchun asosga ega bo'ladi.

Bo'lib o'tgan muzokaralar tomonlar o'zaro munosabatlarni mazmunan boyitishga intilyotganini tasdiqladi. Ikki davlat poytaxtlarida savdo uylarini tashkil etish, imtiyozli kredit liniyalari ochish va laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish hamkorlikning “drayveri” bo'lib xizmat qiladi.

To'g'imachilik, farmatsevtika, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va IT sohalariga e'tibor qaratish orqali hamkorlar kapital aylanmasi tez va nisbatan qisqa investitsion silkgga ega bo'lgan segmentlarga yo'naltirilganligini namoyish etadi.

To'g'ridan to'g'ri aviareyslarni yo'lga qo'yish va quruqlikdagi yo'laklarni rivojlantirish masalasi alohida qiziqish uyg'otdi. Logistika qisqartirish bo'yicha tashabbuslar ko'proq Yevroosiy tendensiyasiga mos keladi. O'zbekiston uchun bu Toshkentni tranzit oqimlari uchun mintaqaviy markazga aylantirish strategiyasining yana bir elementidir.

Prezident Rumen Radevning Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etishi esa Sofiya O'zbekistonga nafaqat bozor, balki YOIIga a'zo mamlakatlar va Afg'oniston koridoriga chiqish platformasi sifatida qarashidan dalolat beradi.

Kuala-Lumpur uchun O'zbekiston — Bolgariya hamkorligining faollashuvi natijador ko'rinishda. Bu o'rta iqtisodiyotlar geosiyosiy to'siqlarni chetlab o'tib, Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasida qanday qilib tez “yuksiz” yo'laklarni shakllantirayotganini ko'rsatadi.

Mehmet Seyfettin EROL, Anqara inqiroz va siyosat tadqiqotlari markazi “ANKASAM” direktori (Turkiya):



— Tashrif Prezident Shavkat Mirziyoyevning Yangi O'zbekistonning strategik sheriklar doirasini kengaytirishga qaratilgan ko'p vektorli, ochiq va pragmatik tashqi siyosatini mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarining yorqin dalilidir.

Bolgariya Prezidentining O'zbekistonga tashrifi nafaqat ikki tomonlama hamkorlik kontekstida, balki kengroq geosiyosiy jihatdan ham muhim voqea bo'lib, Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa o'rtasidagi hamkorlik uchun yangi uflar ochganini alohida ta'kidlamogchiman.

Ko'ksaroq qarorgohida Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokidagi muzokaralar muhiti O'zbekiston — Bolgariya muloqoti zaminida turgan yuksak siyosiy iroda va ishonchning ko'zgusidir.

Ayniqsa, oliy darajadagi muzokaralar chog'ida erishilgan kelishuv e'tiborga molik. Gap nafaqat savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va to'g'ridan to'g'ri aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish, balki ikki tomonlama tashabbuslarni institutsional qo'llab-quvvatlash uchun sharoitlar yaratish, jumladan, savdo uylarini ochish, laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish va mehnat resurslari sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yish haqida bormoqda.

Gumanitar kelishuvlar bloki — Madaniyat almashinuvi yili, akademik forumlar, shaharlar o'rtasida sheriklik munosabatlarini o'rnatish kabi tashabbuslar o'zaro hamkorlikning asosini tashkil etishini alohida ta'kidlamogchiman. Bu qadamlar O'zbekiston rahbarining xalqlarni yaqinlashtirish va o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash borasidagi strategik qarashlariga to'la mos keladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida yangi O'zbekiston tashqi siyosatining izchilligi va ochiqligini, pragmatik va o'zaro hurmat asosida Yiga a'zo davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashni namoyish etmoqda. O'z navbatida, Bolgariya tranzit va texnologik salohiyatga ega davlat sifatida O'zbekistonning Janubiy va Sharqiy Yevropa bozorlariga chiqishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Ishonchim komilki, Bolgariya Prezidentining O'zbekistonga tashrifi nafaqat ikki tomonlama manfaatlariga xizmat qiladi, balki YI va Markaziy Osiyo o'rtasida yangi hamkorlik makonini shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Xolid Taymur AKRAM, “Umumiy kelajakka jamiyati” tahlil markazi ijrochi direktori (Pokiston):



— Men uchun Bolgariya Prezidenti Rumen Radevning O'zbekistonga tashrifi Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash istagini ko'rsatuvchi muhim voqeadir.

Avvalo, amaliy hamkorlikka alohida e'tibor qaratilganini yuksak qadrlayman. Tovar ayirboshlash hajmini oshirish, turli mahsulotlar yetkazib berishni kengaytirish, shuningdek, poytaxtlarda savdo uylari ochish, imtiyozli kredit liniyalari ajratish to'g'risidagi qarorlar juda aniq qadamlardir.

Agrosanoat majmui, farmatsevtika, geologiya, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar va turizm kabi istiqbolli yo'nalishlarda qo'shma loyihalarga alohida e'tibor qaratilayotgani yetakchilarning uzoqni ko'ra bilishini ko'rsatadi. Aynan ushbu

sohalar bugungi kunda jahon iqtisodiyotining kelajagini belgilab beradi va bu sohalarida birgalikdagi sa'y-harakatlar har ikki davlatga ham katta naf keltirishi mumkin.

Quruqlik va havo yo'laklarini samarali rivojlantirish, shuningdek, to'g'ridan to'g'ri aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish imkoniyatlarini ko'rib chiqish masalasi nafaqat ikki tomonlama munosabatlar, balki butun mintaq uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Markaziy Osiyodagi asosiy davlat, Bolgariya esa YI a'zosi sifatida yangi logistika yo'nalishlarini yaratishda muhim rol o'ynashi mumkin. Bu qit'alar o'rtasidagi savdo-sotiqni faollashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Yuriy SIGOV, Rossiya davlat gumanitar universitetining xalqaro munosabatlar kafedrası dotsenti:



— Ushbu tashrif Toshkent va Sofiya o'rtasidagi aloqalarni oliy darajada qo'llab-quvvatlashni jadallashtirish hamda Yevropa Ittifoqi rahbariyatining Markaziy Osiyo mintaqasida ishtirokini kengaytirish bo'yicha umumiy tashabbusining davomi bo'ldi.

O'zbekiston Bolgariyani Yevropa Ittifoqidagi foydali hamkor mamlakatlardan biri deb biladi. Ayniqsa, Qora dengizda Bolgariya portlarining mavjudligini hisobga olgan holda. Bugungi kunda O'zbekistonda Bolgariya investorlari ishtirokidagi 30 ta, jumladan, to'liq bolgar kapitali ishtirokidagi to'rtta korxona faoliyat yuritmoqda.

Slovakiya bilan munosabatlardagi kabi Sofiya bilan hamkorlik O'zbekistonni Qozog'iston, Ozarbayjon va Gruziya hududi orqali Qora dengiz portlari bilan bog'lashi mumkin bo'lgan Transkaspий xalqaro transport yo'nalishi kontekstida O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan transport infratuzilmasi bilan Bolgariya Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasida tranzit yo'lagi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

“Dunyo” AA



Qaror va ijro

“Topganim — o'zimmiki”

Ilgari unchalik bilinmasdi. Muzrob oila qurib, ro'zg'or tashvishlari yelkasiga tushgach, biror tayinli ish topmasa qiynalishini tushundi. Lekin bu oson kechmasligi aniq. Bir-ikki marta turli tashkilotlarga borib ko'rdi. Bo'sh o'rin yo'qligi bois, jimgina ortiga qaytdi. Boshqalar qatorini yaqin atrofdagi fermerdan ijaraga yer olib, dehqonchilik qilish payiga tushdi. Bolaligidan dalada mehnat qilib, suyagi qotgan. Harakat qilsa, eplab ketishiga ko'zi yetardi.

Erta bahorda qishlog'iga yaqin joydagi fermerning dalasidan ozroq yer ijaraga oldi. Yaxshi niyat bilan yeng shimarib, ishga kirishdi. Oldin maydonni traktorda yaxshilab haydatib, ekin ekishga tayyorlab oldi. Shundan so'ng sabzavot urug'ini sepdı.

Endi qo'lga ketmon olib, har kuni saharlab dalaga yo'l oladi. Mehr bilan ishlab, qilyotgan mehnati samarasidan zavqlanadi. Asta-sekin urug' nishlab, hosil bo'y ko'rsata boshladi. Yosh dehqon astoydil harakat qilib, ariqlarni tozalab, suv boshqarib keldi. Tajribali agronomlardan maslahat olib, agrotexnik tadbirlarni vaqtida qilib bordi. Hosil yomon bo'lmadi. Xaridor topib, dalaning o'zida yaxshigina pulladi. Mo'may daromad topdim deb mamnun bo'lgandi. Quvonchi uzoqqa bormadi. Fermer ijara haqini so'rab kelganida, hisoblab ko'rsa, foydasining yarmidan ko'pi ketib qolyapti.

Shuncha mehnat qilib, huzurini boshqalar ko'rayotgani unga ta'sir qildi. Dehqonchilik qilishdan ham ko'ngli qoldi. Barchasiga qo'l siltab, boshqa yurga ishga ketish harakatiga tushdi. Ayrim tanishlaridan surishtirib xorijda qurilishda ishlash mumkinligini aniqladi. Yolg'iz ketgandan ko'ra, biror kishini hamroh qilish uchun o'rtloqlaridan birga shu taklifni aytib ko'rdi. U esa chet elga bormasligini, yoshlarga yer ajratilayotganini, shundan olib, poliz mahsulotlari ekish niyatida ekanini aytdi. Bu gaplarga unchalik ishonmagan Muzrob mahalladagi yoshlar yetakchisidan so'rab ko'radigan bo'ldi. Yetakchi bu gap haqiqat ekanini, kerak bo'lsa, unga ham yer ajratilishi mumkinligini tushuntirdi.



YOSHLARIMIZ XORIJGA ISH IZLAB EMAS,

— Bolaligidan dalada mehnat qilishni yaxshi ko'raman. Kishi peshona teri bilan topgan rizqining barakasi boshqacha bo'ladi, — deydi Nishon tumani Nurchi mahallasida yashovchi Muzrob Qudratov. — Fermer dalasida ijaraga asosida ishlaganim bilan baribir o'zimmiki bo'lmas ekan. Shu sabab xorijga yo'l olmogchi bo'lib turgandim. Tengdoshlarim yer berilayotgani haqida aytib qoldi. Mahallamizdagi yoshlar yetakchisi yordami bilan tirmush o'rtog'imni ikkalamizga auktsion orqali 30 yilga bir gektar yer berildi. Bu ancha qulay ekan. Yer suvli, unumdor joy. Shu bilan birga, yashash joyimizga yaqin. Yaxshi niyat bilan birinchi yili yer yong'oq ekkdik. Dastlabki hosil yaxshi bo'ldi. Sof daromadimiz 50 million so'mdan oshdi. Takroriy ekinning ham cho'g'i yomon bo'lmadi. Bu yil ham yer yong'oq ekkamiz. Bundan ham kamida 50-60 million so'm foyda olish niyatimiz bor. Dalada oilaviy ish bilan bandmiz. Oldin ijara uchun kamida 10 million so'mdan ortiq pul to'lagan bo'lsam, endi xarajatim ancha kamaydi. Eng ma'quli, hech kim xalal bermaydi, topganim — o'zimmiki. Agar shu imtiyozlar berilmaganida hozir begona davlatning qaysidir ko'chasida sarson yurgan bo'larmidim...

“Eksport qilish harakatidaman”

G'uzorlik Akmal Xolmurodov ham bir paytlar oldidagi imkoniyatni ilg'amay, chet elga borib ishlash istagida yurgan yoshlardan edi. O'ylab ko'rsa, yangi uy qurish kerak. Yashash sharoitini o'nglash uchun ancha pul zarur. Bu yerda vaqtini o'tkazgandan ko'ra, ketgan ma'kul. O'zi qishloqda tug'ilib o'sgani bois, imkoni bo'lsa biror joydan yer olish istagi bor edi. Buning iloji yo'q. Kunlarning birida televizor orqali o'zi tengi yoshlar yer olib, dehqonchilik



TOPGAN DAROMADIGA

SAYOHATGA BORMOQDA

ortidan yaxshi daromad topayotgani to'g'risidagi ko'rsatuvni ko'rib qoldi. O'zicha: “Nega endi boshqa joylarda bor imkoniyat bizda bo'lmagligi kerak?” deya mahallaga yo'l oldi. Rais bilan suhbatlashdi. Yoshlar yetakchisining tavsiyasini oldi. Tez orada auktsion orqali unga ham yer beriladigan bo'ldi.

— Qishloqda yashab shuncha imkoniyatimiz bor ekan, bundan faqat unumli foydalanishimiz kerak, — deydi G'uzor tumani Dashtobod mahallasida yashovchi Akmal Xolmurodov. — Rostini aytсам, uy qurishimiz kerak edi. Shu sabab xorijda ozroq ishlab kelish niyatida edim. Mahallamiz faollari yordami bilan o'tgan yili ukam ikkalamizga bir gektar yer berildi. Ijara

puli ham ancha arzon ekan. Bundan tashqari, sug'orishga qulay, yaxshi joy. Dastlabki yil katta niyatda pomidor ekkdik. Hosil yaxshi bo'ldi. 85 million so'm ishlab topdik. Takroriy ekin sifatida sabzi ekkandik. Taxminan 15 million so'm foyda olishni ko'zlab turgandik. Kutganimizdan ham ortiq bo'ldi. Foydamiz 25 million so'mdan oshib ketdi. Joriy yil astoydil mehnat qilib, pomidorning yaxshi navini olib kelib ekkdik. Nasib etsa, bu yil birinchi mavsumda foydamiz 100 million so'mdan oshadi degan umiddamiz. Kelgusida nafaqat ichki bozorga sotish, balki eksport qilishni ham rejalashtirganmiz.

Bugun tajribali mirishkorlardan birga aylangan yosh dehqon nafaqat o'zini o'zi

bandligini ta'minlab daromad topmoqda, balki mahalla yoshlarini mavsumiy ishga jalb etib kelmoqda. Shu bilan birga, ichki bozorni sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlashda yetakchilik qilmoqda.

Dashtobod mahallasidagi yoshlar yetakchisining aytishicha, hududdagi unumdor, suvli, aholi yashash joyiga yaqin yerdan 34 nafar yoshga 29 gektar yer elektron platforma orqali tavsiya bilan 10 yilga imtiyozli ravishda olib berilgan. Yoshlar poytaxtdan pomidor urug'ini olib kelib, xonadonidagi issiqxonalarda ko'chat qilib yetishtirgan. Ekin ekishdan avval yerga yaxshilab agrotexnik ishlov berib,

astoydil mehnat qilishdi. Misol uchun, ilgari biogumus mahalladan

70 kilometr uzoqlikdagi boshqa hududdan olib kelingan bo'lsa, hozir mahalla aholisining o'zi biogumus tayyorlamogda. Bu ham yoshlar uchun ancha qulaylik bo'ldi.

2025-yilda hudud yosh mirishkorlari bundan katta maqsadni mo'ljal olgan. Shuningdek, dala maydonida 5 kilovattlik quyosh panellarini o'rnatgan. Oldin elektr energiyasi uchun oyiga 2 million so'mdan xarajat qilingan bo'lsa, hozir ehtiyojidan ortgan elektr energiyasini davlatga sotib, qo'shimcha daromad ishlamoqda.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 5-apreldagi “Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida tuman hokimliklari zaxirasidagi 60 ming 500 gektar yer ochiq tanlovga qo'yilib, kichik lotlarda suv ta'minoti yaxshi joydan yoshlarga ajratib berilishi belgilangan.

Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Qashqadaryo viloyati hokimi tasdiqlagan javdalga asosan, 6000 gektar yer 7584 yoshga ajratilishi rejalashtirilgan.

2024-yilda viloyat miqyosida “mahalla yetitiligi” tavsiyasi bilan dehqonchilik qilish istagidagi 7911 yoshning dastlabki elektron ro'yxati shakllantirilib, 6000 gektar yer to'liq elektron auktsionga chiqarildi.

Bugun viloyatda 10 ming 569 yosh elektron platformaga kiritilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, 2024-yilning 28-noyabr holatiga ko'ra, elektron platforma orqali 6973 (91,9 foiz) yoshning 5115 gektar (85,2 foiz) yerga egaligi ta'minlangan.

Viloyat bo'yicha yoshlarga berilgan yerdan foydalanish monitoringiga ko'ra, 2024-yilda 6416 yosh mirishkor 4656 gektar yerdan 32 ming 995 tonna mahsulot olgan va 49 milliard 879 million so'mlik daromadga ega bo'lgan.

Intiluvchan, mehnatsevar har bir yosh uchun imkoniyat bor. Faqat undan oqilona foydalanish, harakat qilish lozim. Asosiysi, imkoniyatdan unumli foydalanishni vaqtida anglab yetgan yoshlar bugun o'z daromad manbaga ega bo'ldi. Qolaversa, ular endi xorijga ish izlab emas, balki sayohat uchun bormoqda.

Akbar RAHMONOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

ULAR TA'TILDA HAM BEKOR BO'LMAYDI

Maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan Prezidentimiz raisligida joriy yil 15-mayda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida o'quvchilar o'rtasida turizmni rivojlantirish bo'yicha yangi tizim yaratilishi ta'kidlangan edi.

Qoraqalpog'iston, Xorazm, Samarqand, Buxoro va poytaxtdagi "Barkamol avlod" markazlarida kamida 100 o'rinni bolalar sayyohlik bazasi tashkil qilinishi aytilib, mutasaddilarga qiziqarli turizm to'plamlarini yaratib, har yili 1 million o'quvchini O'zbekiston bo'ylab sayohatga jalb qilish vazifasi topshirilgandi.

Hozir o'quvchi-yu talaba ta'tilda. Shu bois, qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishning ayni pallasi. E'tiborlisi, mutasaddilar bunga jiddiy kirishgan. Misol uchun, shu kunlarda Turizm qo'mitasi tomonidan "O'zbekiston bo'ylab sayohat qili" loyihasi doirasida 20 ming o'quvchining sayohati tashkil etilmoqda. Yoshlarbop turyo'nalishlardan muzeylar, galereyalar, tarixiy obidalar, madaniy meros obyektlari va istirohat bog'lari o'rin olgan.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 30-apreldagi "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, har yili "Yoshlar turizmi oyligi"ni o'tkazish, uning doirasida esa "Yoshlar turizmi" qurultoyi tashkil etilishi belgilangan.

"Yoshlar turizmi oyligi" bu yil 20-iyuldan 20-avgustga qadar o'tkazilishi ko'zda tutilyapti. Oylik doirasida o'quvchi, talaba va yoshlarning ziyoratgoh va qadamjolar, diqqatga sazovor joylarga tizimli sayohatlari, respublika bo'ylab mahorat darslari hamda tariximizni jonli ko'rsatuvchi teatr-lashitirilgan tomoshalar tashkil etiladi. Yoshlar keyingi yillarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishtiriladi. Bu ularda yurtda bo'layotgan o'zgarishlarga daxldorlik hissini shakllantiradi.

11-16-avgust kunlari esa Shahrisabz tumanidagi "Lochin" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida "Yoshlar kelajak bunyodkorlari!" IV ekologiya va turizm xalqaro qurultoyi o'tkazilishi belgilangan. Qurultoy doirasida respublikaning har bir hududidan 50 nafar iqtidorli, ijtimoiy himoyaga muhtoj, shu jumladan, nogironligi bo'lgan hamda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan o'quvchi, talaba va yoshlar jalb qilinadi. Sayohat ularda bir-biri bilan muloqot qilish, jamoada ishlash

Mulohaza

Bugungi raqamli dunyoda farzandlarini axborot xurujidan asrash ota-onalar zimmasidagi mas'uliyat. Ayniqsa, internet olami cheksiz va nazoratsiz bo'lib borayotgan far pallada ko'pchilik onalar farzandlariga faqat davlatga qarashli, bolalar uchun mo'ljallangan telekanallarni tomosha qilishga ruxsat berishni ma'qul ko'radi. Bunday kanallarda efriga uzatilayotgan dasturlar sifat jihatidan muayyan talablarga javob berishi mumkin, biroq e'tiborni tortadigan bir jihat bor — bu reklamalar.

Tahlillarga ko'ra, ayrim bolalar kanalda namoyish etilayotgan reklama roliklarining aksariyati bevosita kichikintoylarga emas, balki kattalar, xususan, onalar auditoriyasiga mo'ljallangan. Kir va idish yuvish vositalari, turli gigiyenik mahsulotlar, hatto kosmetika buyumlari — bularning barchasi bolalar dunyoqarashi va ehtiyojiga mutlaqo mos



va rahbarlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Yangi do'stlar orttiradi. Kitobxonlik kunlari, milliy va etnosport turlari bo'yicha musobaqalar hamda madaniy-ko'ngilochar tadbirlar, yuqori natijalarga erishgan hamda yoshlarga o'mak bo'ladigan sportchilar, murabbiylar, san'at, madaniyat, ilm-fan va biznes sohalarini namoyandalari ishtirokida mahorat darslari, hunarmand, teatr va kino ijodkorlari bilan muloqotlar bo'ladi. Bular faqatgina ko'ngilochar tadbirlargina emas, balki unutilmas taassurotlarga oshno bo'la.



Vatanni chuqurroq anglash imkoni

Qiziqarli ekskursiya, gastronomik sayohat, ta'lim, ma'rifiy va sport tadbirlari... Sayohatga otlangan o'smir uchun vatanning tarixiy joylari, madaniy merosi, tabiiy go'zalliklari, mahalliy urf-odat va an'analar bilan tanishish,

yangi do'stlar, bilim, tajriba orttirish imkoniyati juda jozibali. Olamni bilish, dunyoqarashini kengaytirish, shaxsiy o'sish, o'zini namoyon qilish istagi hayot quvonchlarini his etishga moyil bu yoshda o'zgacha mazmun kasb etadi. Muhimi, ularga shu sharoitni yaratish, dunyoni o'zgartirishga qodir yangi g'oyalarga turki berish. Bolalar sayyohlik bazalarini tashkil etish tashabbusi ana shu ezuq maqsadni o'zida jamlagan.

Namangan viloyatida ilk bor faoliyat boshlagan, 150 o'ringa ega bolalar sayyohlik bazasi bugun ko'plab yoshlarni o'z bag'riga choralmoqda.

— Bolalarni sayohat va ekskursiyalarga jalb etish, madaniy meros bilan tanishtirish, hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish, do'stlik va ijtimoiy faollikni oshirish asosiy yo'nalishlarimizdan, — deydi Namangan bolalar sayyohlik bazasi mudiri Bobur Bahridinov. — Dastlab yurtingizning turli hududlaridan kelgan 110 o'g'il-qizni Namanganning diqqatga sazovor joylari bilan tanishtirdik.

"Yosh sayyoh", "Yosh ekskursavod", "Yosh o'lkashunos" kabi yo'nalishlar orqali vatanimiz tarixi, qadimiy qadamjolar, milliy urf-odatlarimiz bilan yaqindan tanishtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, asrash, bolalar o'rtasida ekologiya hamda sayohat qilish madaniyatini yuksaltirish ko'zda tutilgan.

Muassasada o'quvchilar nafaqat maroqli dam olmoqda, balki qobiliyatini sinab ko'rish, vatanni chuqurroq anglash imkoniga ega bo'lmoqda.

Soha rivojida ommaviy tadbirlarning ahamiyati katta

Turizm jahon iqtisodiyotida daromadli va jadal rivojlanib borayotgan sohalardan. Bu bozorning asosiy segmentlaridan biri o'quvchi va yoshlardir. Bolalar va yoshlar turizmi rivojida esa ommaviy tadbirlarning hisssasi katta.

— Joriy yil 22–25-may kunlari "Mo'ynoq ralli" avtomobil musobaqasi tashkil etildi, — deydi Turizm qo'mitasi bosh mutaxassisi

Bekzod Murodullayev. — Unda mahalliy yoshlar bilan birga qo'shni respublikalardan kelgan sayohatchilar mototsikl va yengil avtomobillarda mahoratini namoyish etdi.

20 mingga yaqin yoshni bir yerda jamlagan ushbu tadbirdan ko'zda tutilgan maqsad Mo'ynoq va Orolbo'yi brendini yangicha namoyon etish, Orolbo'yining noyob tabiiy landshafti, tarixi orqali tanishtirish edi. Orolbo'yi faqat ekologik emas, balki tarixiy hudud ham. Ushbu sayohat o'g'il-qizlarni boy tarix, vaqt silsilasidagi o'zgarishlar bilan yaqindan tanishish, ekologiyaga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga undagan bo'lsa ajab emas.

Yaqinda "Orol dengiziga poyezd" yoshlar ekologik aksiyasi o'tkazildi. Aksiya ishtirokchilari Nukus va Mo'ynoq

tumanlaridagi diqqatga sazovor joylarga borishdi. Orolbo'yi ekologik muammolari bilan bevosita tanishib, uni bartaraf etish borasidagi ishlar haqida batafsil ma'lumot olishdi.

Yoshlar "Orol biznesi" shiori ostida Orol dengizi tarixi muzeyi, "kemalar qabristoni" va memorial majmualar bilan tanishishdi. "Yashil makon" umummilliy dasturi doirasida Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markaziga sayohat yoshlarni unutilmas taassurotlarga oshno etdi.

— Orolga sayohat hayotimdagi unutilmas voqealardan biri bo'ldi, — deydi O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabasi Sevinch Ahmedova. — Sayohat davomida Qoraqalpog'istondagi madaniy markazlar va muzeylarga bordik va Mo'ynoq tumanidagi o'zgarishlar bilan tanishdik. Tengqullarim tomonidan yurtingizning turistik salohiyati keng targ'ib qilinib, kontentlar tayyorlandi hamda milliy merosimizni asrashga qaratilgan g'oyalari ilgari surildi. Ayniqsa, Orol fojiasi haqida ishlangan rasmlar bir umr xotiramda qoldi. Ularda dengiz suvining yo'qolishi, qumli va tuzli maydonlar, eskirgan kemalar va baliqchilar, saksoval va cho'lga chidamli boshqa turdagi o'simliklar eklayotgani, bunyodkorlik ishlari tasvirlari bor. Bu tabiatning murakkabligi va inson hayotiga ta'sir haqidagi bilimlarimiz oshishiga yordam berdi. Sayohatdan qaytgach, ekoakademiyaga klubini tashkil etishga kirishdik. Maqsadimiz yoshlarda ekologik tafakkur va mas'uliyatni shakllantirish bo'lib, Orol fojiasi kabi muammolarni o'rganish orqali amaliy yechimlar topish va buni kelajakda xalqaro darajaga olib chiqishdir.

Atrof-muhit va jamiyat oldida mas'uliyatni anglash, tabiatni asrash, uni butunligicha kelajak avlodga yetkazish vazifasi nechog'liq muhimligini tadbir ishtirokchisi bo'lgan har bir yigit-qiz teran anglamogda. Suvni oqilona sarflash, tabiiy muhitga zarar yetkazmaslik tamoyili ana shu sayohatlar orqali yoshlar ongiga singdirilmoqda.

Tabiat qo'ynidagi turlar, ekoturizm va sport safari sog'lom turmush tarziga hissa qo'shishi bilan ahamiyatli. Yangi muhitdagi taassurotlar stressni kamaytiradi, motivatsiyani oshiradi. Ana shu maqsadda 26-may – 1-iyun kunlari Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi yoshlar oromgohida bir haftalik "Ekooromgoh — 2025" hamda uning doirasida "Ekologiya bilimdonlari" ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Ushbu tadbirga respublika bo'ylab jami 300 dan ortiq iqtidorli va faol yosh qamrab olindi.

Esda qolarli xotirlar va hikoyalar yangi joylar, yangi odamlar bilan tanishuv pallalarida yuzaga keladi. Yangi muhit va tajribalar insonni kuchliroq qiladi, har bir ishda ijodiy yondashuvga undaydi. Bugun bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazayotgan, sayohat ko'ngliga ravshanlik berayotgan yoshlar ertaga vatan koriga yaraydigan, har bir ishda kamarbasta bo'la oladigan fidoyi, salohiyatli insonlar bo'lib kamol topishga umid bog'lanmoqda. Qolaversa, bolalar va yoshlar sayohati transport, mehmonxona, ovqatlanish, hunarmandlik sohalarini rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu, o'z o'zida, mamlakat iqtisodiyotiga munosib hissa qo'shadi.

Risolat MADIYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Milliy MEDI AKONTENTNING ZAMONAVIY QIYOFASI

Dolzarb mavzu

Zamon tushunchasi bugun axborot texnologiyalarining mislsiz taraqqiyoti va global onlayn makon shakllanishi bilan tavsiflanmoqda. Bu jarayon insoniyatga axborotni turli ko'rinishda o'zlashtirish va tezkor almashish uchun keng imkoniyat eshigini ochdi. Mamlakatimizda bu tendensiya axborot sohasining rivojlanishi va xususiy sektor ishtiroki kengayishi bilan birga kechayotir.

Axborot tarqatishdagi erkinlik muhitida jamiyat uchun yangi — blogerlik yo'nalishi rivojlandi. Bugun har qanday davlat media-makonda blogerlar yaratayotgan kontentlar muhim o'rin tutadi. Ularning faoliyati tufayli davlat sektoridagi rasmiy ommaviy axborot vositalari e'tiboridan chetda qolishi mumkin bo'lgan ayrim masalalar jamoatchilik muhokamasiga olib chiqilmoqda. Bu, shubhasiz, jarayonning katta ijobiy tomonidir.

Shu bilan birga, bu hodisa davlat va jamiyat hayoti uchun muayyan mulohaza talab qiladigan jihatlarini ham yuzaga keltiradi. Tahlillarga ko'ra, mediamakon orqali aholining muayyan qatlami, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashiga ta'sir o'tkazish, "ommaviy madaniyat"ning ba'zi unsurlari, jumladan, iste'molchilik, dabdababozlik va isrofgarchilik kabi ilatlarni singdirishga qaratilgan urinishlar kuzatilmogda.

Ijtimoiy tarmoqlarda dabdabali to'y-ma'rakalar, qimmatbaho buyumlar namoyishi, qonunlarni mensimay harakatlanish kabi holatlar aks etgan materiallar joylanishi ayrim yoshlar ongida hayotga noto'g'ri munosabatni shakllantirishi mumkin. Natijada ular orasida real hayotdan uzilish, jamiyatdagi ma'naviy me'yorlarga bepisandlik, inson qadr-qimmatini moddiy boylik bilan o'lchash kabi salbiy holatlar ko'zga tashlanmoqda. Bunday taqldichilik ortidan ayrim oilalardagi kelishmovchiliklar, ajralishlar va qarindoshlar o'rtasidagi nizolar kelib chiqayotgani ham sir emas.

Bu jarayonda mamlakatimizga xorijdan kirib kelayotgan mediakontentlar va ularga taqlidan ishlab chiqilayotgan mahalliy mahsulotlarning o'rni bor, albatta. Keng auditoriyaga ega mustaqil milliy platformalar yetarli emasligi, axborot tashuvchilarning, asosan, G'arb platformalaridan foydalanishi ma'naviyatimizga yot g'oyalarning keng tarqalishiga zamin yaratmogda. Global platformalarga muqobil milliy dasturlarimizning yo'qligi bir qancha savollarni o'rta qiqaryapti.

Dunyo tajribasida milliy platformalar yaratish va qo'llab-quvvatlash axborot xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan. Masalan, Xitoyda WeChat, Weibo kabi milliy platformalar, Rossiyada "KinoPoisk HD", "Okko" kabi striming xizmatlari, Turkiyada esa Tabii, BluTV, Exxen kabi milliy platformalar faol rivojlantirilmoqda.

Milliy ommaviy axborot vositalarida tashqi ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish, milliy g'oyani targ'ib qilish borasida jamiyatimiz, ayniqsa, ziyolilar orasidagi yakdillik va tashabbuskorlik har doim ham yetarli darajada emas. Telekanallarni sifatli milliy mediakontent (rolkliklar, ko'rsatuvlar, teleseriallar, filmlar,

multifilmlar) bilan ta'minlash orqali vatanparvarlikni oshirish, madaniy merosimizni, ma'rifatparvar ajdodlarimiz faoliyatini targ'ib etish ishlari bugunning talablaridan ortda qolmogda.

Ayni paytda efriga uzatilayotgan ayrim seriallarning mazmunan sayozligi, reyting ortidan quvib, milliy mentalitetimizga mos kelmaydigan mavzular olib chiqilayotgani jamoatchilik orasida bahs-munozaralarga sabab bo'layotir. Aslida, milliy serial va kinolar orqali qadriyatlarimizning go'zal va tarbiyaviy jihatlarini namoyon etish, ularning mazmuni orqali xorijda O'zbekiston haqida ijobiy fikr shakllantirish, yurtingizni Sharq madaniyatining yuksak markazlaridan biri ekanini ifodalashga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Mamlakatimiz kino va seriallar ishlab chiqish sohasida boy tajribaga ega. "Abdullajon", "Temir xotin" kabi filmlar xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan. Bugun bu sohada raqobatbardoshligimizni oshirish muhim vazifa bo'lib qolmogda.

Xo'sh, yechim nimada? Avvalo, tashqi axborot xurujiga qarshi samarali kurashish uchun milliy va madaniy o'zligimizni asrashga qaratilgan sifatli mediamahsulotlar yaratishni kuchaytirishimiz zarur. Xorijiy mediamahsulotlarning yoshlar ongiga ta'sirini o'rganuvchi ilmiy-ijtimoiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, ularning natijalari asosida milliy kontentlarning ta'sirchanligini oshirish lozim.

Shuningdek, milliy mediamakonni himoya qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni, badiiy kengashlar faoliyatini takomillashtirish, xorijiy kontentlarning mazmunini nazorat qilish mexanizmlarini ishlab chiqish davr talabi.

Bundan tashqari, vatanparvarlik, milliy tarix, til va urf-odatlarimizning betakrorligini aks ettiruvchi mediamahsulotlarga davlat-xususiy sheriklik asosidagi buyurtmalarni shakllantirish ko'lamini oshirish, sohnaroq qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish kerak.

Milliy kontent yaratish faqat ayrim tashkilotlarning vazifasi degan fikrdan yiroq bo'lish kerak. Har bir davlat organi va muassasasi o'z vakolatli doirasida bu jarayonga hissa qo'shishi, global mediamakonda milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va o'zbek millatining o'ziga xosligini targ'ib qilishga xizmat qilishi mumkin. Zero, milliy o'zlikni saqlab qolish barchamizning umumiy vazifamizdir.

Zuhriddin HASANOV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi xodimi, mustaqil ilmiy tadqiqotchi

BOLALAR RUHIYATIGA REKLAMALAR QANCHALIK TA'SIR O'TKAZMOQDA?

emas. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: nega etikanalar uchun mo'ljallangan aksariyat telekanallarda onalarga qaratilgan reklamalar bu qadar ko'p namoyish etiladi?

Bu holat, aslida, puxta o'ylangan marketing strategiyasining bir ko'rinishi. Televizion sohasida maqsadli auditoriyani aniq belgilash reklama samaradorligini keskin oshirishi sir emas. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, bolalar dasturlarini tomosha qilayotgan kichikintoyning yonida, aksariyat hollarda, uni nazorat qilib turgan ota-onasi, ayniqsa, onasi bo'ladi. Reklama beruvchilar aynan shu omildan unumli foydalanib, mahsulotlarini bolalar orqali onalarga yetkazishni, ularning xarid qarorlariga ta'sir o'tkazishni maqsad qiladi. Boshqacha aytganda, kanal nomi "bolalar uchun" deb atalgani bilan reklama mazmuni ko'proq onalarga qaratiladi. Bu esa, o'z navbatida, bolalar telekanallarining asl vazifasi — yosh avlod ongini rivojlantirishga xizmat qilishni yoki katta yoshdagi auditoriyaga mahsulot sotish vositasiga aylanishni degan jiddiy savolni o'rta qashlaydi.



Mazkur holat axloqiy jihatdan ham qator muammolarni keltirib chiqaradi. Bolalar auditoriyasi uchun mo'ljallangan

diqqatni chalg'itadi, nozik ongga ortiqcha va keraksiz bosim beradi. Bundan tashqari, asosiy kontent va reklama mazmuni o'rtasidagi uyg'unlikning buzilishi tomoshabinlar, xususan, ota-onalarning kanalga ishonchiga putur yetkazishi mumkin. Bunday kanallar bolalar uchun faoliyat yuritayotgani ta'kidlanar ekan, u holda efriga uzatilayotgan reklama siyosati ham bolalar psixologiyasi, yosh xususiyatlari va axloqiy me'yorlarga to'la mos bo'lishini ta'minlashi shart.

Bugun reklama bozori inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazuvchi turli manipulyatsiya vositalarini keng qo'llanmoqda. Bolalar esa bunday ta'sirlarga o'ta moyil auditoriya. Ular ko'rgan-eshitganini tez va oson eslab qoladi, takror-takror namoyish etilgan obrazlar esa bolalarning ongi va tasavvuriga chuqur singib, o'rnatib boradi. Agar bola muntazam bir xil mazmundagi reklama roliklarini ko'raversa, hatto ularning asl maqsadi va mazmunini to'liq anglab yetmasa ham, ushbu mahsulot yoki brendga nisbatan iliq yoxud ijobiy munosabat shakllanishi mumkin. Bu esa kelajakda bolaning iste'molchi sifatidagi tanloviga bilvosita ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Aslida, bolalar kanallaridagi reklama siyosatini yosh avlod uchun foydali va tarbiyaviy ahamiyatga ega mahsulotlar tomon yo'naltirish imkoniyati mavjud. Masalan, bolalar kitoblari, audioertaklar, turli rivojlantiruvchi o'yinchoqlar, sport anjomlari va mantiqiy o'yinlar, maktab jihozlari yoki

zamonaviy ta'lim platformalari, shuningdek, to'g'ri ovqatlanishga oid mahsulotlar haqidagi reklamalar ham bolalar, ham ota-onalar uchun manfaatli bo'ladi. Bundan tashqari, ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasida bolalar telekanallarida reklama namoyishi butunlay taqiqlangan yoki o'ta qat'iy senzura ostida, cheklangan miqdorda uzatiladi. Bunday modellarni o'rganish va amaliyotda taqbiy etish masalasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Bolalar uchun mo'ljallangan mediakontentni nazorat qilish nafaqat mazmun, balki reklama siyosati jihatidan ham o'ta muhim. Teleradiokompaniyalar va boshqa mediavositalar reklama siyosatini shakllantirishda reklama roliklarining mazmuni va shakli yosh auditoriyaning psixologik xususiyatlariga mos bo'lishi, bolalar ruhiyatiga zarar yetkazmasligi kabi jihatlariga jiddiy e'tibor qaratishi zarur. Shuningdek, taqdim etilayotgan mahsulot va xizmatlar haqidagi axborot imkon qadar bolalar uchun ham foydali va tushunarli bo'lishi ayni muddao.

Bu borada ota-onalar va fuqarolik jamiyati vakillari ham faollik ko'rsatishi muhim. Shundagina bolalar uchun mo'ljallangan mamlamaydon haqiqatan yosh avlod manfaatlariga xizmat qiladigan, ma'naviy va intellektual rivojlanishga hissa qo'shadigan manbaga aylanishi mumkin.

Zebiniso PRIMQULOVA,
O'ZJOKU talabasi



Iftixor



Zohidjon OLOV,
Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

Xayr, ey nadomat, xayr, ey alam!
O'ttiz to'rt yil kutdik bu kunni mahtal —
Nihoyat! Ushaldi bizning orzu ham!
Salom, katta futbol, salom mundial!

Hushtak yangrar! Ko'zdan tomchilar quvonch,
Nahotki rost bo'lsa! Tush emasmi bu?!
Dunyo darvozasi ochdi keng quloch,
Orzu bo'lib qolib ketmadi orzu!

Bu kech yig'ladim goh pinhon, goh oshkor,
Avval ham bo'zlardim changallab boshim.
Unda achchiq alam edi sababkor —
Bu gal shirin baxtdan to'kdim ko'zyoshim.

Bu kech ich-ichimdan yig'ladim men ham,
Ko'z oldimdan o'tdi bolalik chog'im.
Futboldan so'z ketsa, mendan damodam,
"Kim zo'r?" deb so'rardi sho'rlik o'rtog'im...

Sanar edim: "Bekxem, Zidan, Matteus,
Del Pyero, Rivaldo hamda Ronaldo...
Go'yo o'zimizda yo'q edi yulduz —
Futbol o'ynalmasdi bu yurtda go'yo!

Bugun o'sha zo'rlar bizda ham bordir,
Alixsiz qolmaydi bergan salomim!
Kim Jalol, kim Abbos, kim Abduqodir,
Kim Eldor, kim aytar Odilning nomin.

Ajnabi y kimsaga qilmasdan havas,
Bola bo'lib qolsam agar bir fursat...
Futbolkam ortiga "Buffon" deb emas,
O'tkirbek ismini yozardim, albat!

Bu el topgan mudom mehnatdan iqbol,
Ko'kargaydir agar yerga suqsa cho'p...
Dalasidan ortsa, o'ynagan futbol,
Qo'lida ketmon-u xayolida to'p.

Lek Tangrim deganni Tangri ham siylar,
Orzu tugamaydi, orzu o'lmaydi...
Hech kim bilmasa ham, raqiblar bilar —
O'zbeklarni halol yengib bo'lmaydi!

Ne-ne zotlar o'tdi chekib afsus, oh,
Ishonib havas-u xayolotlarga.
Ular achgandi aslida ko'proq
Mirjaloldek noyob iste'dodlarga!

Xayriyat, orqada qoldi hammasi,
Bizning ham yelkaga tegmoqda oftob!
Jafokash xalqimga tashakkur-tahsin —
Yaratgan Egamga shukr behisob!

Yurtboshim otadek qo'llar munosib,
"Bolam" deb yo'lga yoqadi chiroq.
Qutlar har g'olibni bag'riga bosib,
Yo ko'nglin ko'tarar qilib qo'ng'iroq.

Tunda yulduzlarga uzoq ser solib,
Turgan joyidayoq qilgan edi kashf.
Endi-chi, Beruniy avlodi g'olib —
Okean ortida tushajak kurash!

O'zbek sha'nin asrar ro'yi jahonda,
Soyada qolmaydi berkinib, qo'rqib...
Yigitlar jang qilar yashil maydonda
Muxlislar muzqaymoq yalar miriqib.

Men bilan o'ylashib gaplash, ey dunyo,
Kimligimni aytay — sal tush osmondan.
Kaminaning ismi Zohidjon Olov —
Mundialga chiqqan O'zbekistondan!

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока”
gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

FUTBOLIMIZDA KATTA TO‘Y

Ammo yurtimizda futbol sohasining saviyasi ko'tarilishi, zafar cho'qqilarini birma-bir zabt etishida davlatimiz rahbari tomonidan sohaga qaratilayotgan e'tibor, to'g'ri yuritilayotgan davlat siyosati, futbol va uning atrofida fidoyilik bilan mehnat qilayotgan yuzlab yurtdoshlarimizning ham hisssasi katta. Hatto ketmaket muvaffaqiyatsizliklariga qaramay, har yili so'nggi daqiqagacha terma jamoamizni qo'llab-quvvatlab turgan futbol muxlislarining o'z o'rni bor.

O'zbekiston milliy terma jamoasining BAA futbolchilariga qarshi bahsini katta hayajon bilan kuzatdim. So'nggi daqiqualarda quvonch ko'z yoshlarini tutib turolmadim, to'g'risi. Qatar futbolchilari ustidan qozonilgan g'alabani esa faxr-iftixor bilan tomosha qildim. Maydondagi ko'tarinki ruh, bayram shodiyonalari, futbolchilarimizning g'ayrat-shijoati, yurtdoshlarimiz yuz-ko'zlarida kulgi-tabassum, xursandchilik porlab turishi — bulaming barcha-barchasini ko'rib, bag'oyat mamnun bo'ldim. O'zgacha "atmosfera", bayram shukhi mening ham qalbimga ko'chdi.

Eng quvonarlisi, o'yindan so'ng davlatimiz rahbarining shaxsan o'zidan "Do'stlik" ordenini qabul qilib oldim. Bu mukofot nafaqat men, balki butun sport jurnalistikasi sohasiga qaratilgan e'tibor ekanini ich-ichimdan his qildim.

Mirzahakim TO'XTAMIRZAYEV,
futbol sharhlovchisi

Stadionga kirib kelar ekanman, haya-jondan yuragim gupillab urardi. Atrofdagi o'n minglab muxlislarning yuz-ko'zidagi o'sha umid, o'sha ishonchni ko'rib, ich-ichimdan faxrlanib ketdim. Aslida, shunday xalqning farzandi ekaningdan, shunday yurtda yashayotganingdan qancha g'ururlansang, shuncha oz. Hali hakamning o'yinni boshlab beruvchi hushtagi yangramasdan oq butun stadion yigitlarni qo'llab-quvvatlab, hayqira boshladi. Bu shunchaki hayqiriq emas, butun millatning orzulari, umidlari jamlangan nido bo'lib tuyuldi menga.

O'yin davomida o'g'lim har safar to'pni ushlaganida, darvozaga yaqinlashgan xavfli vaziyatlarni bartaraf etganida, yuragim hapqirib ketaverdi. Bir ko'zim maydondagi farzandimda bo'lsa, ikkinchisi muxlislarda edi. Ularning har bir xatti-harakatni qanchalar hayajon va intiqlik bilan kuzatayotganini ko'rib, o'g'limning va jamoadoshlarining yelkasida qanchalar ulkan mas'uliyat turganini yana bir bor his qildim.

O'g'illarimiz gol urgan lahzalardagi hissiyotni esa so'z bilan ta'riflab berolmayman. Butun stadion bir tanu bir jon bo'lib, shodlikdan hayqirardi. O'shanda

BAYRAMGA MUNOSIB TUHFA



Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi

Yurtimizda ayni kunlarda juda katta xursandchilik, bayram shukhi kezib yuribdi. O'tgan hafta yurtdoshlarimiz muqaddas Qurbon hayitini nishonlagan bo'lsa, arafa kuni futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi jahon chempionatiga yo'llanma olgani bayramga munosib tuhfa bo'ldi. Bu shunchaki voqea emas, balki butun xalqimiz uzoq kutgan tarixiy kun, mamlakatimizda yangi O'zbekistonnı barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo'lidagi islohotlarning naqadar to'g'ri, samarali ekanining yorqin dalilidir.

kechasi bo'lishiga qaramay, jamoa-mizni tarixiy natija bilan telefon orqali tabriklagani, o'y lashimcha, yurtimizning har bir fuqarosi yuragida juda katta ko'tarinkilik hamda vatanparvarlik ruhini uyg'otdi.

Bu natijalar aslo tasodif emas. So'nggi yillarda davlatimiz rahbarining aynan futbol yo'nalishi bo'yicha tizimli islohotlari mahsuli, 38 million nufusli o'zbekistonliklar uzoq kutgan zafar bu. Parlament a'zosi sifatida Prezidentimizning 2023-yil 7-apreldagi "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2023-yil 3-noyabrdaqi "Futbol-ta'lim muassasalari tarmo-g'ini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Futbolni yanada rivojlantirish, yoshlarimizni sportning ushbu turiga keng jalb qilish, futbol infratuzilmasini yaxshilash va ayniqsa, malakali murabbiylarni jalb qilish, yoshlarimiz uchun futbol maydonlarida zamonaviy shart-sharoit yaratishga qaratilgan mazkur hujjatga muvofiq, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi tizimida Milliy futbol markazi, Futbol bo'yicha respublika oliy sport mahorati maktabi negizida Futbol terma jamoalari tayyorgarlik markazi, shuningdek, Sport tibbiyoti va reabilitatsiya markazi

tashkil etildi. Har bir yo'nalish, jumladan, futbolga ham bu tarzda ilmiy-amaliy jihatdan kompleks yondashish bugun mana shunday yuksak natijalarni taqdim etyapti.

Ushbu voqea nafaqat sport-chilarimiz, balki barcha futbol muxlislari uchun 30 yillik orzular ro'yobi bo'ldi. 2026-yilda AQSH, Meksika va Kanadada bo'lib o'tadigan jahon chempionatida vatanimiz bayrog'i ilk bor xalqaro maydonda ko'tarildi.

10-iyun kuni poytaxtimizdagi "Bunyodkor" stadionida milliy terma jamoamizning Qatar bilan kechgan guruhdagi so'nggi uchrashuvi ham alohida e'tirofga loyiq. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Bolgariya Prezidenti Rumen Radev, Slovakiya Bosh vaziri Robert Fitso va boshqa bir qator nufuzli mehmonlar bilan bevosita stadiondan turib muxlislik qilgan bahsda yigitlarimiz raqibni 3:0 hisobida dog'da qoldirdi.

Bu natijalar o'zbek milliy futbol modeli shakllanganini tasdiqladi. Futbolni ommalashtirish, yosh avlodning qiziqishini rag'batlantirish, yoshlar o'rtasidagi U-17, U-20 va U-23 terma jamoalarimizning xalqaro maydondagi muvaffaqiyati ham aynan futbolga tizimli yondashuv samarasidir. Qo'mitamiz tomonidan joriy yil aprelda mahallalarda sport infratuzilmasini rivojlantirish va sport maydonchalaridan foydalanishni



tashkil etish bo'yicha qilingan ishlar holati o'rganildi.

O'rganishlar bugun mamlakat bo'yicha mingga yaqin mahallada futbol maydonchalariga ehtiyoj borligi, yoshlar o'rtasida sportning ushbu turiga qiziqish yildan yilga oshib borayotganini ko'rsatadi.

E'tiborli jihati, to'rt yildirki "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkazilayotgan ommaviy sport musobaqalari 13 ta sport turi, jumladan, futbol bo'yicha ham tashkil etilmoqda.

Ushbu musobaqalar tarkibida Davlat xavfsizlik xizmati maxsus kubogi uchun mahalla yoshlari o'rtasida futbol (o'g'il bolalar), mini futbol (o'g'il va qiz bolalar o'rtasida) bo'yicha musobaqalar tashkil etilayotgani, o'z navbatida, yoshlarning jismoniy faol-ligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu musobaqalarda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan yoshlar soni 2024-yilda 534 mingni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 780 mingdan oshdi.

Saudiya Arabistonida U-17 yosh toi-fasidagilar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo kubogida O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi hal qiluvchi finalda g'alabaga erishgan. Bu muvaffaqiyatga muhim hissa qo'shganlar orasida jamoa darvozaboni Ne'matulloh Rustamjonov va yarim himoyachi Muhammadali Habibullayev kabi yosh qahramonlar bor. Ular mahallamizda istiqomat qiladi. Yigitlarga taqdim etilgan Prezident tufasi — "Kobal" avto-mobili mahallamiz ko'chaları orqalı o'tgani yodimga tushdi. Buni ko'rgan yoshlarimizning ko'zidagi havas hamda futbolga qiziqish qay darajada oshganini o'z ko'zimiz bilan ko'rdik. Bu nainki g'alaba, balki ilhom va yangi orzularga yetaklovchi yo'ldir.

Oilamizda ham futbolga muxlislik an'anaga aylangan. Haftada bir kun qarindoshlar yig'ilib futbol o'ynaydi. Bu nafaqat salomatlik va faol turmush tarzini shakllantiradi, balki oilada birdamlik va ahillikni ham mustahkamlaydi.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 646. 36191 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.	Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Zafar Ro'ziyev Manzilmiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy O'za yakuni — 03:39
--	---	--